

UNIVERSAL

XALQARO ILMIY JURNAL

Volume 1, Issue 1, 2024



TAHRIRIYAT KENGASHI

Bosh muharrir

Abdutilibov Muhridin Zuhridin o'g'li

Bosh muharrir o'rinbosari, texnik muharrir

Xusanov Saydulloxon

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

01.00.00 – Fizika-matematika fanlari	PhD. I.A.Karimjanov PhD. J. Ziyoviddinov PhD. X.Qo'shaqov
02.00.00 – Kimyo fanlari	k.f.d., dots. N.X.To'xtaboyev k.f.d., dots. O.Sh.Abdullayev
03.00.00 – Biologiya fanlari	b.f.d., prof. N.A.Xo'jamshukurov b.f.d., prof. A.K.Xusanov b.f.n., dots. F.M.To'xtaboyeva PhD. Sh.Tashbayev PhD. G'.G'ulomov PhD. I.I.Muhammedov
05.00.00 – Texnika fanlari	PhD. B.Azimov
06.00.00 – Qishloq xo'jaligi fanlari	PhD. F.Yuldashev
07.00.00 – Tarix fanlari	t.f.d., prof. B.M.Rasulov t.f.d., dots. S.Hoshimov
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari	i.f.n., dots. D.Nurmatov
09.00.00 – Falsafa fanlari	PhD. X.Xolmirzayev
10.00.00 – Filologiya fanlari	f.f.d., prof. B.Raxmonov PhD. U.B.Raxmonov
11.00.00 – Geografiya fanlari	g.f.d., dots. A.Isayev PhD. T.Zokirov
13.00.00 – Pedagogika fanlari	PhD. U.T.Shoabduraximova PhD. A.Abdullayeva
19.00.00 – Psixologiya fanlari	p.f.d. prof. M.Xalimova

Rasmiy sayt: www.universaljurnal.uz



Telegram manzil: https://t.me/universal_jurnal



© Jurnalda berilgan materiallarning mazmuni va xaqoniyligiga mualliflarning o'zlari javobgardirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidandavlat ro'yxatidan o'tkazish raqami: № 245196



GORNER SXEMASINING MATEMATIK ANALIZGA TATBIQI

Qaxxorova Muslimaxon Shokirjon qizi

Qo‘qon universiteti

ANNOTATSIYA

Maqola haqida ma‘lumot
Qabul qilingan: 03.04.2024
Qayta qabul : 10.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

M.SH.Qaxxorova



Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



muslimaxonqaxxorova@gmail.com

© Muallif. M.SH.Qaxxorova

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma‘lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to‘g‘ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko‘rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Barcha asosiy adabiyotlarda Gerner sxemasi $x-c$ ko‘phad uchun berilgan. Ko‘phadlarning ildizlarini topish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ko‘plab matematik masalalarni yechish ko‘phadning ildizlarini o‘rganish masalasiga olib keladi. Albatta, Gerner sxemasi bunda muhim ahamiyatga ega. Keltirilgan Gerner sxemasini $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad uchun sodda ko‘rinishga keltirilishi ko‘plab masalalarni yechishda, teorema, lemma, xossalalar va natijalarni isbotlashda xizmat qiladi. Shuningdek undagi ma‘lumotlar, xulosalar, nazariy umumlashtirishlar Gerner sxemasini qo‘llash, umumlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Ushbu maqolada kvadrat uchhad uchun Gerner sxemasi keltirilgan bo‘lib, undan foydalanib ko‘phadlarga va sodda kasrlarga ajratishga doir masalalar yechib ko‘rsatilgan. Bundan tashqari ratsional kasrni sodda kasrga ajratishda, matematik analizda ratsional kasr ko‘rinishdagi aniqmas integrallarni hisoblashni osonlashtirish maqsadida foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Gerner sxemasi, aniqmas integral, ratsional kasr, ratsional funksiyalar, integrallash.

Annotation.

In all the main literature, the Gerner scheme is given for the polynomial. Finding the roots of polynomials is very important. Because solving many mathematical problems leads to the question of studying the roots of a polynomial. Of course, the Gerner scheme is important in this. Making the quoted Gerner scheme appear simple for a square uchhad serves in solving many problems, proving theorem, lemma, properties, and results. Also, the information contained in it, conclusions, theoretical generalizations provide the opportunity to draw scientific and practical conclusions on the application of the Gerner scheme, generalization. This article presents the Gerner scheme for a square uchhad, using which the problems of decomposing into polynomials and simple fractions are solved. Moreover, when dividing a rational fraction by a simple fraction, it is seen that in mathematical analysis the rational fraction can be used with the aim of facilitating the calculation of indeterminate integrals in the representation.

Keywords.

Gerner's scheme, indeterminate integral, rational fraction, rational functions, integrable.

KIRISH.

O'sib kelayotgan yosh avlodning bilimli, intiluvchan, mustaqil fikrlaydigan va zamon ruhiga mos shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi ustuvor masala bo'lib kelmoqda. Ushbu masalani hal etish ko'p jihatdan ta'lim sohasida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot texnologiyalarni keng va mukammal qo'llashga ham bog'liqdir. Har bir matematik tushunchani o'qitilishida, qo'llashda, avvalo, uning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratish lozim.

Har bir matematik tushunchani o'qitilishida, qo'llashda, avvalo, uning amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratish lozim. , mavjud asosiy adabiyotlarda Gerner sxemasi $x - c$

birhad uchun berilgan, unga doir amaliy tatbiqlar o'rganilgan. Lekin Gerner sxemasini $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad uchun deyarli o'rganilmagan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Gerner sxemasini $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad uchun sodda ko'rinishga keltirish, uning tatbiqlarini ilmiy tahlil etish, matematika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha asosiy adabiyotlarda Gerner sxemasi $x - c$ ko'phad uchun berilgan. Ko'phadlarning ildizlarini topish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki ko'plab matematik masalalarni yechish ko'phadning ildizlarini o'rganish masalasiga olib keladi. Albatta, Gerner sxemasi bunda muhim ahamiyatga ega. Gerner sxemasi va uning tatbiqlariga oid ko'plab olimlar ish olib borgan. Jumladan, Ayupov Sh., Omirov B., Xudoyberdiev A., Xaydarov F., "Algebra va sonlar nazariyasi" o'quv qo'llanmasida Gerner sxemasi, Bezu teoremasi, Algebraning asosiy teoremasi va shu kabilar misollar yordamida aniq tushuntirilgan.

A. Xojiev, A. Faynleybning "Algebra va sonlar nazariyasi" kitobida kompleks koeffitsiyentli ko'phadlar haqida tushuncha berilgan. Kompleks koeffitsiyentli ko'phadlarning bo'linishi, kompleks koeffitsiyentli ko'phadlarning karrali ildizlari haqida tushunchalar hamda kompleks koeffitsiyentli musbat darajali har qanday ko'phad kompleks ildizga ega ekanligi isbotlab berilgan. Bundan tashqari Gerner sxemasi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

METODOLOGIYA.

Avvalo, Kvadrat uchhad uchun Gerner sxemasini keltirib chiqaramiz. Aytaylik,

$$f(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + \dots + a_{n-1}x + a_n$$

ko'phadni $h(x) = x^2 - px - q$ ko'phadga bo'lish talab qilingan bo'lsin. Bu yerda p va q larning ishoralari qulaylik uchun tanlangan xolos. $f(x)$ va $h(x)$ ga bo'lganda chiqqan bo'linma darajasi $n - 2$ ga, qoldiqning darajasi birdan oshmasligi bizga ma'lum. Ularni mos ravishda

$$g(x) = b_0x^{n-2} + b_1x^{n-3} + \dots + b_{n-3}x + b_{n-2} \text{ va}$$

$$r(x) = cx + d$$

ko'rinishda belgilaylik, ya'ni

$$f(x) = (x^2 - px - q)(b_0x^{n-2} + b_1x^{n-3} + \dots + b_{n-3}x + b_{n-2}) + cx + d$$

Bu tenglikdagi chap va o'ng tomondagi ko'phadlar tengligidan foydalanib, quyidagi tengliklar sistemasini hosil qilamiz.

$$a_0 = b_0$$

$$a_1 = -b_0p + b_1$$

Shunday qilib, bo'linma va qoldiq ko'phadlar koeffitsiyentlari topildi. Xuddi yuqoridagidek, $f(x)$ ko'phadni $x^3 + ax^2 + bx + c$ ko'phadga va 4, 5 va hokazo darajali ko'phadlarga bo'lishni ham shunga o'xshash jadvalni orqali qurish mumkin.

Bu usulni qulaylik uchun Gornerning ikkinchi sxemasi deb ataylik. Bu sxema yordamida ko'phadga doir bir necha masalalarni yechishda

$$a_2 = -b_1p - b_0q + b_2$$

$$a_3 = -b_2p - b_1q + b_3$$

$$a_4 = -b_3p - b_2q + b_3$$

...

$$a_{n-1} = -b_{n-2}p - b_{n-3}q + c$$

$$a_n = -b_{n-2}q + d$$

Bu tengliklarni quyidagicha yozish mumkin:

$$b_0 = a_0$$

$$b_1 = b_0p + a_1$$

$$b_2 = b_1p + b_0q + a_2$$

$$b_3 = b_2p + b_1q + a_3$$

$$b_4 = b_3p + b_2q + a_3$$

...

$$c = b_{n-2}p + b_{n-3}q + a_{n-1}$$

$$d = b_{n-2}q + a_n$$

Endi xuddi Gerner sxemasiga o'xshash quyidagi jadvalni quramiz (1-jadval):

1-jadval

	a_0	a_1	a_2	...	a_{n-1}	a_n
$p \quad q$	b_0	$b_1 = b_0p + a_1$	$b_2 = b_1p + b_0q + a_2$...	$c = b_{n-2}p + b_{n-3}q + a_{n-1}$	$d = b_{n-2}q + a_n$

amalda qo'llaymiz. Bulardan biri

$$\frac{P_n(x)}{(x^2 + px + q)^m}$$

ratsional kasrni sodda

kasrlarga ajratishdan iborat. Bu masalani ham gerner sxemasi yordamida yechishimiz mumkin.

Ratsional funksiyalarni integrallash. Bu keltirilgan Gornerning ikkinchi sxemasi ratsional funksiyalarni integrallashda qo'llash mumkin, bunda hisoblash birmuncha soddalashadi.

NATIJALAR.

1-misol. Ushbu

$$\frac{x^5 + 3x^3 - x + 3}{(x^2 - x - 2)^3} \quad (x \neq 2, x \neq -1)$$

ratsional kasrni sodda kasrlar yig'indisi ko'rinishida yozing.

Yechish: $x^5 + 3x^3 - x + 3$ ko'phadni $x^2 - x - 2$ ko'phadning darajalari ko'rinishida yozib olamiz.

1-jadvaldagi kabi koeffitsiyentlarni aniqlaymiz:

	a_0	a_1	a_2	a_3	a_4	a_5
	1	0	3	0	-1	3
1;2	1	1	6	8	19	19
1;2	1	2	10	12		

$$\begin{aligned} x^5 + 3x^3 - x + 3 &= (19x + 19)(x^2 - x - 2)^2 + (10x + 12)(x^2 - x - 2) \\ x^5 + 3x^3 - x + 3 &= (19x + 19)(x^3 + x^2 + 6x + 8) = \\ &= (x^2 + x + 2)((x^2 + x + 2)(x + 2) + 10x + 12) + 19x + 19 = \\ &= (x + 2)(x^2 + x + 2)^2 + (10x + 12)(x^2 + x + 2) + 19x + 19. \end{aligned}$$

Endi tenglikning har ikkala tomonini hadma-had

$$(x^2 - x - 2)^3 \text{ ga bo'lamiz}$$

$$\frac{x^5 + 3x^3 - x + 3}{(x^2 - x - 2)^3} = \frac{x + 2}{(x^2 - x - 2)} + \frac{10x + 22}{(x^2 - x - 2)^2} + \frac{19x + 19}{(x^2 - x - 2)^3}$$

2-misol. Ushbu

$$\frac{x^6 + x^5 + x^3 - x^2 + x + 2}{(x^2 + x + 2)^4}$$

ratsional kasrni sodda kasrlar yig'indisi ko'rinishida yozing.

Yechish: $x^6 + x^5 + x^3 - x^2 + x + 2$

ko'phadni $x^2 + x + 2$ ko'phadning darajalari ko'rinishida yozib olamiz:

3-jadvaldagi kabi koeffitsiyentlarni aniqlaymiz:

3-jadval

	a_0	a_1	a_2	a_3	a_4	a_5	a_6
	1	1	0	1	-1	1	2
-1;-2	1	0	-2	3	0	-5	2
-1;-2	1	-1	-3	8	6		
-1;-2	1	-2	-5				

$$x^6 + x^5 + x^3 - x^2 + x + 2 = (x^2 + x + 2)^3 - (2x + 5)(x^2 + x + 2)^2 + (8x + 6) \times$$

$$\times (x^2 + x + 2) - 5x + 2$$

Endi tenglikning har ikkala tomonini hadma-

had $(x^2 + x + 2)^4$ ga bo'lamiz:

$$\frac{x^6 + x^5 + x^3 - x^2 + x + 2}{(x^2 + x + 2)^4} = \frac{1}{x^2 + x + 2} - \frac{2x + 5}{(x^2 + x + 2)^2} + \frac{8x + 6}{(x^2 + x + 2)^3} - \frac{5x - 2}{(x^2 + x + 2)^4}$$

3-misol. Ushbu

$$\int \frac{x^3 - x^2 + x + 2}{(x^2 + x + 1)^2} dx$$

aniqmas integralni hisoblang.

Yechish: 2-3-misoldagi kabi

$x^3 - x^2 + x + 2$ ko'phadni $x^2 + x + 1$ ko'phadning darajalari ko'rinishida yozib olamiz. 4-jadvaldagi kabi koeffitsiyentlarni aniqlaymiz:

4-jadval

	a_0	a_1	a_2	a_3
	1	-1	1	2
-1;-1	1	-2	2	4

$$x^3 - x^2 + x + 2 = (x - 2)(x^2 + x + 1) + 2x + 4$$

Endi tenglikning har ikkala tomonini hadma-had $(x^2 + x + 1)^2$ ga bo'lamiz:

$$\int \frac{x^3 - x^2 + x + 2}{(x^2 + x + 1)^2} dx = \int \left(\frac{x - 2}{x^2 + x + 1} + \frac{2x + 4}{(x^2 + x + 1)^2} \right) dx =$$

$$= \int \frac{x - 2}{x^2 + x + 1} dx + \int \frac{2x + 4}{(x^2 + x + 1)^2} dx = \frac{2x}{x^2 + x + 1} + \frac{1}{2} \ln(x^2 + x + 1) -$$

$$- \frac{1}{\sqrt{3}} \operatorname{arctg} \frac{2x + 1}{\sqrt{3}} + C$$

Bu keltirilgan Gornerning ikkinchi sxemasi yordamida bundan boshqa ko'plab masalalarni yechish uchun ham qo'llash mumkin, bu esa hisoblashni yengillashtirishga yordam beradi.

MUHOKAMA.

Ilmiy masalalar shundan iboratki, ko'phadlar nazariyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Goner sxemasi umumiyashtirildi. Goner sxemasining kvadrat uchhad uchun formulasi ishlab chiqilgan va u yordamida ratsional funksiyali aniqmas integrallarni osongina hisoblashda foydalanildi. Albatta, ushbu ko'rinishdagi funksiyalarni osonlashtirish ahamiyatli hisoblanadi, ya'ni bu usulni qo'llash orqali hisoblashni yengillashtirish mumkin.

Ma'lumki, Goner sxemasi $x - c$ birhad uchun keltirilgan. Shu bilan birga uning qo'llanilishi bo'yicha juda ham muhim masalalar yechiladi.

Bunday masalalarga $f(x)$ ko'phadni $x - c$ birhadga bo'lish, $f(x)$ ko'phadni $x - c$ birhadga bo'lgandagi qoldiqni topish, $f(x)$ ko'phadni $x - c$ birhadning darajalari bo'yicha yoyish, $f(x)$ ko'phadning $x - c$ birhad karrali ildiz ekanligini aniqlash va h.k.

XULOSA.

Ushbu maqolada butun koeffitsiyentli Goner sxemasini umumlashtirish va uning tadbirlari haqida bo'lib, unda Goner sxemasini $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad uchun sodda ko'rinishga keltirish uning tadbirlarini ochib berish masalalariga qaratilgan bo'lib, bu bo'yicha dastlab olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1.

$$P(x) = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x + a_0$$

ko'phadni $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhadga bo'lgandagi qoldiqni topishga qo'llangan;

2.

$$P(x) = a_n x^n + a_{n-1} x^{n-1} + \dots + a_1 x + a_0$$

ko'phadni $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhadning darajalari bo'yicha yoyilgan

3. $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad

uchun Goner sxemasini $\frac{P_n(x)}{(x^2 - px + q)^m}$

ko'rinishdagi ratsional kasrni sodda kasrlarga ajratish mumkinligi ko'rsatilgan;

4. $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad

uchun Goner sxemasini qo'llab

$$\int \frac{P_n(x)}{(x^2 - px + q)^m} dx$$

integrallar ko'rsatilgan.

ko'rinishdagi aniqmas

Bu esa Gerner sxemasining matematik analizga tatbiqi bo'yicha dastlabki qadam bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulxamidov A., Nasimov X., Nosirov U., Xusanov J., "Algebra va matematik analiz asoslari", 1-qism, Toshkent. "O'qituvchi", -2008. B: 121-141.
2. Abdulxamidov A., Nasimov X., Nosirov U., Xusanov J., "Algebra va matematik analiz asoslaridan masalalar to'plami", 1-qism, Toshkent. "O'qituvchi"-2003, B:57-63.
3. Alixonov S., "Matematika o'qitish metodikasi", Toshkent. "Cho'lpon nashriyoti" -2011. B:125-128.
4. Ayupov Sh., Omirov B., Xudoyberdiev A., Xaydarov F., "Algebra va sonlar nazariyasi" o'quv qo'llanma, Toshkent. "Tafakkur bo'stoni" -2019. B: 95-128.
5. Raxmonova, V. (2023). THE ROLE AND PLACE OF MATHEMATICAL MODELS IN TEACHING STUDENTS TO SOLVE OPTIMIZATION PROBLEMS. *Modern Science and Research*, 2(4), 592-597.



OLIV MATEMATIKANI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Raxmonova Nilufar Vaxobjon qizi

Qo'qon Universiteti Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası
o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 06.04.2024
Qayta qabul : 22.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

N.V.Raxmonova



Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0000-0002-8161-5423>



rahmonovanilufar406@gmail.com

© Muallif. N.V.Raxmonova

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Ushbu maqolada maktab va oliy ta'lim tizimida matematika o'qitishning zamonaviy muammolarga zamonaviy yechim topishning turli va samarali usullari bayon qilingan. Ushbu usullardan talabalarning matematika ta'limi sifatini monitoring va diagnostika qilish, matematika o'qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ketma-ketliklar mavzusini o'qitish mavzusi misolida zamonaviy metodlarning o'rni va ahamiyati hamda ulardan oqilona foydalanish uchun ko'rsatmalar berib o'tilgan. Dars davomida Charxpalak, Xotira mashqi, Savatcha, Shartnoma metodlari bilan tanishtirilib, matematik dasturlardan: MATLAB, Maple, GeoGebra, Minitab, Excell kabi ilovalaridan to'g'ri foydalanish hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi ko'rib o'tilgan. Matematikaning degradatsiyasiga barham berish, talabalarining bilim olishga qiziqishi hamda amaliyoti va istiqbolli tadqiqotlardan foydalanish uchun ba'zi takliflar berilgan.

KALIT SO'ZLAR

Charxpalak, Xotira mashqi, Savatcha, Shartnoma, kompetensiya, degradatsiya, MATLAB, Maple, GeoGebra, Minitab, Excell.

ANNOTATION

This article describes different and effective methods of finding modern solutions to modern problems of teaching mathematics in schools and higher education systems. Among these methods, the role and importance of modern methods and their rational use were given for monitoring and diagnosing the quality of students' mathematics education, improving the methodology of mathematics teaching. During the lesson, Charkhpalak, Memory exercise, Basket, Contract methods were introduced, the correct use of mathematical programs such as MATLAB, Maple, GeoGebra, Minitab, Excel, and their importance and effectiveness in the educational process were discussed. Some suggestions are given for ending the degradation of mathematics, interest and practice of students and use of prospective research.

Key words: Methods: Charkhpalak, Memory exercise, Basket, Agreement, competence, degradation, MATLAB, Maple, GeoGebra, Minitab, Excell.

KIRISH

Oliy o'quv yurtlari tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuv kasbiy ko'nikmalarni samarali va texnologik shakllantirishga e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan. Kasbiy kompetensiya deganda biz kasbiy vazifalarning samaradorligini belgilaydigan va bilim, ko'nikma va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar, tajriba va qiymat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan shaxsiy ta'lim sifatida tushunamiz. Bunda kompetensiya "bilim", "qobiliyat", "mahorat" va "tajriba" kabi an'anaviy tushunchalardan o'zining integral xususiyati bilan, ya'ni amaliyotga yo'naltirilganlik, keng ko'lamda ishlash qobiliyati kabi shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadiganligi bilan farq qiladi. Kasbiy kompetensiyaning bunday ta'riflash universitet o'quv dasturini pedagogik qo'llab-quvvatlashga jiddiy o'zgartirishlar kiritish va uni bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan

hamda har tomonlama natijani ta'minlaydigan o'qitish usullari bilan to'ldirishni talab qiladi. Universitet ta'lim jarayonining an'anaviy usullari (ma'ruza, tushuntirish, seminar, amaliyot va h.k.) malaka oshirishda albatta muhim ahamiyatga ega. Biroq, ularning cheklovlari hozirda yanada keskinroq sezilmoqda. Shuning uchun zamonaviy ta'lim o'quvchilari mustaqil faoliyatga, o'z-o'zini o'qitish muhitini tashkil etishga va eksperimental va amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirilishi kerak.

Bizning maktab va oliy ta'lim tizimlariga nazar solsak, o'quvchi maktabda faqatgina "o'qishga kirib olish" uchungina ma'lum doiradagi fanlarni o'rganadi. Shuni yodda tutishimiz kerakki, ularning matematikadagi e'tiborsizligi va qiyinchiliklari ular bilan tanish bo'lgan matematika va matematik fikrlashda ko'p uchraydi.

Butun dunyo bo'ylab matematika va informatika fanlarining foydaliligi ta'kidlangan. Matematik ilovalar va matematik modellashtirish nanotexnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va aloqa, sug'urta va bank ishi kabi fanlar bo'yicha zamonaviy dunyo muammolarini hal qilishda tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda kasbga qiziqishni uyg'otadigan o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish, o'quv materiallarini samarali o'zlashtirishga ko'maklashish, xulq-atvor shakllarini shakllantirish, yuqori motivatsiya, kuch, bilim, jamoaviy ruh va so'z erkinligini ta'minlash o'qituvchidan yuksak mahorat va e'tiborni talab qiladi. Bir tomondan, zamonaviy avlod o'quvchilari o'rtasida matematik ta'limdagi inqiroz va yetishmovchilik alomatlarini minimallashtirish muhimdir.

Boshqa tomondan, yangi avlod o'quvchilari tarbiyalanayotganda matematikaning o'qitish tizimi qanday

bo'lishi kerakligi haqidagi savol juda muhimdir:

a) talabalarning matematika ta'limi sifatini monitoring va diagnostika qilish bo'yicha matematikani o'qitish metodikasini takomillashtirish;

b) kelajak jamiyat farovonligi uchun matematik ta'limni isloh qilish bo'yicha jahon tajribasini kuzatish va almashish;

c) matematikani o'qitishda qo'llaniladigan vositalarning afzalliklari, ta'siri va kamchiliklarini batafsil tahlil qilish, xususan, matematik ta'lim uchun onlayn kurslarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

d) dars davomida o'rganilayotgan sohaning ahamiyati va qo'llanilish soxalari talabalarga eslatib turish;

Yuqorida keltirilgan maqsadlardan talabalarning matematika ta'limi sifatini monitoring va diagnostika qilish bo'yicha matematikani o'qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan bir qancha yangicha yondashuv va metodlarni sinab ko'rdik. Quyida biz, Oliy matematika kursidan sonli ketma-ketliklar mavzusi misolida matematikaning har bir mavzularini to'liq o'zlashtirish uchun qulay bo'lgan ayrim metodlar haqida to'xtalamiz.

METODOLOGIYA

Sonli ketma-ketliklar tushunchasi matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan sonli to'plamlar ustidagi ma'lum umumiy xususiyatli nomerlangan elementlarning natijasi o'laroq tasavvur qilish mumkin. Misol uchun sonli to'plam sifatida $N = \{1, 2, 3, 4, \dots\}$ natural sonlar to'plami va juft sonlar to'plami $E = \{2, 4, 6, \dots, 2n, \dots\}$ ni olsak, E to'plamning har bir elementi N da aniq nomerga ega.

Ketma-ketliklar mavzusi maktab kursidan boshlab oddiy misollar orqali tushuntirib o'qitiladi. 9- sinf Algebra kursida sonli ketma-ketliklar tushunchasini hayotiy vaziyatlar orqali tanishtirilib, arifmetik va geometrik progressiyalar haqida tushunchalar beriladi. Ushbu tushunchalar

ustiga oliy ta'limda ketma-ketliklar haqida umumiy tushunchalar quriladi. Oliy ta'limda ham dastlab to'plamlar va akslantirish hamda uning turlari o'rganilgandan keyin sonli ketma-ketliklar mavzusini boshlash maqsadga muvofiq. Bizga biror $\tau: N \rightarrow R$ bir qiymatli akslantirish berilgan bo'lsin. Biz bu akslantirishni $\tau: n \rightarrow x_n$ ($\tau(n) = x_n$) ko'rinishda ham ifodalashimiz mumkin.

Ta'rif. Ushbu τ akslantirishning qiymatlaridan tuzilgan $x_1, x_2, \dots, x_n, \dots$ to'plam sonli ketma-ketlik deb ataladi va $\{x_n\} = \{x_1, x_2, \dots, x_n, \dots\}$ kabi yoziladi (bu yerda, x_n ketma ketlikning umumiy hadini ifodalaydi).

Demak, ta'rifga binoan, yuqoridagi misolda berilgan ketma-ketlikni $\{2n\} = \{2, 4, 6, \dots\}$ ko'rinishda ham yozishimiz mumkin. Sonli ketma-ketliklar mavzusi yuzasidan talabalar juda katta hajmli ma'lumotlarni o'zlashtirilishi talab etiladi: sonli-ketma-ketlikning chegaralanganligi, monoton ketma-ketliklar, ketma-ketlikning limiti va uni hisoblashdagi muhim kriteriya va bosqichlar haqida tasavvur hosil qilish uchun turli metodik o'yinlar va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biz quyida Qo'qon universiteti 1- kurs Psixologiya yo'nalishi talabalari bilan dars mashg'ulotlarida foydalanilgan va yaxshi natijaga erishilgan metodlar haqida ma'lumot berib o'tishni joiz deb bildik. Shuni ta'kidlash joizki, ma'ruza mashg'ulotlarida har bir yangi mavzu boshida mavzu va uning qo'llanilish soxalari haqida qisqacha eslatib o'tilganidan so'ng, talabalarning mavzu yuzasidan maktab kursida o'zlashtirgan bilimlari haqida qisqacha 10 talik test yoki "BBB" metodi, "Aqliy xujum" metodlaridan foydalanib, xulosa qilib olinadi. So'ng mavzu yuzasidan talabalarda qiyinchilik tug'dirgan jihatlariga alohida e'tibor qaratilib, dars bayon qilinadi.

Amaliy darsda esa, talabalar guruhlariga ajratilgani ma'qul (talabalar soniga qarab). Quyida amaliy darsda qo'llash mumkin bo'lgan metodlar bilan tanishamiz.

Xotira mashqi. Ushbu metod ma'ruza mashg'ulotlarida ta'kidlangan atamalarni yodga olish uchun yaxshi samara beradi. Bu metodni guruhlar kesimida ham, yakka tartibda ham o'tkazish mumkin. Har bir guruhdan bittadan talaba tanlab olinadi. Proyektor ekranida avvaldan o'qituvchi tomonidan tayyorlangan 15-20 ta atamalar ko'rsatilib, har bir guruhdan chiqqan ishtirokchilar uchun ikki marta o'qib olishlariga imkon beriladi. O'qituvchi 1- guruh ishtirokchisiga ayrim atamalarni 2 marta o'qiydi (talaba ekranga qarab turishi mumkin). Talaba o'qilgan atamalarni aytishga tayyorlanib turganida o'qituvchi undan tashlab ketilgan atamalarni so'raydi. Har bir to'g'ri topilgan atama uchun 1 balldan, agar talaba topgan atamalarini izohlari bilan ham aytib bersa guruh uchun 2 balldan beriladi. 2-3- guruh ishtirokchilaridan ham shu tartibda savol-javob qilinadi.

Charxpalak. Bu metod guruhda ishlashda va takrorlash darslarida yaxshi samara beradi. Talabalar 4-8 kishilik guruhlariga ajratiladi. Har bir talaba o'zining daftoriga o'zi hohlagan ko'rinishda ketma-ketlikning umumiy hadini (ketma-ketlikning limitiga doir masala, yoki ketma-ketlikning hadlari berilganda uning umumiy hadi formulasini topish...) yozadi va o'ng tomonida o'tirgan talabaga daftari uzatadi. Daftarni olgan talaba esa ketma-ketlikning hadlarini topadi va tagiga o'zi yana yangi misol yozib o'ng tomondagi sherigiga daftarni yo'llaydi, va jarayon har bir talabaga o'zining daftari qaytib kelgunigacha davom etadi. Ushbu metod orqali guruhning barcha a'zolari faol ishlaydi va kim darsni yaxshi o'zlashtirmagani daftarlari unga kelib yig'ilib qolganligidan sezilib qoladi. Bunda eng tez, to'g'ri va turli masalalar kiritgan guruh g'olib bo'ladi.

Savatcha usuli - talabalar e'tiborini jalb qilish va diqqatlarini jamlash maqsadida o'yin shaklida qo'llaniladigan metod. Buning uchun

Savatchaga turli shartlar yozilgan qog'ozchalar yoziladi. Masalan, "karra jadvalini aytayotganda 3 ta chegaralangan ketma-ketlikka misol ayting", "bir oyog'ingizni ko'targan holda limiti nolga teng ketma-ketlikka misollar ayting", "o'zingiz yoqtirgan insonga taqlid qilib, o'suvchi va kamayuvchi ketma-ketliklar haqida gapiring", ... Bu metodning afzalligi shundaki, talaba bir vaqtning o'zida ikkita bir-biriga qarama-qarshi ishlarini bajarishi uning diqqat va e'tiborini kuchaytiradi.

Shartnoma. Bu metod og'zaki takrorlash darslarida qo'llash uchun qulay. Talabalarning faolligini va qoidalarga bo'ysunib ishlash qobiliyatini kuchaytiradi. Bunda o'qituvchi darsda bajarish mumkin bo'lgan ishlar va bajarish qat'iyon rad etilgan ishlar ro'yxatini tuzadi. Har bir guruh darsda o'zlari bajaradigan ishlarni tanlab oladi, albatta, har bir guruh har xil vaziyatlarni tanlaydi. Misol uchun, muhokama qilish, chapak chalish, savolga bir kishi javob berishi, oyoqlarni chalishtirib o'tirish, kulish, baqirish, boshqalarni eshitmaslik, saqich chaynamaslik... Va shu shartlar asosida har bir guruh bilan shartnoma tuziladi. Shartlar bajarilganda talabaning bilimiga qo'shimcha ball qo'shilib yoki ayiriladi.

Matematik turli arifmetik va algebraik operatsiyalarni bajarishga yordam beradigan hozirgi zamonaviy dasturlar ham talaygina. Ulardan eng masxur va ommaboplari: MATLAB, Maple, GeoGebra, Minitab, Excell... Ular ko'pincha rejalashtirish va ilmiy hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Bu dasturlar turli xil hisob-kitoblarni sezilarli darajada soddalashtirishga yordam beradi. Ulardagi tayyor buyruqlar, formulalardan foydalanib, eng oddiy arifmetik amallarni ham, murakkabroq hisoblarni ham bajarish mumkin. Ayniqsa, ular ommaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish kerak bo'lgan

holatlarda juda yaxshi yordam beradi. Bundan kelib chiqib aytoilamizki, talabalarining o'z kasblari doiralari aynan qaysi dastur qo'l kelishini aniqlashtirib, o'qituvchi har bir dars oxirida ushbu ilovalarning qo'llanilishini tushuntirib o'tishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Ta'lim maqsadlari, xususan, matematika har bir bosqichda shaxs, jamiyat, mamlakat va sivilizatsiya kutgan nuqtai nazardan amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, ta'limni iqtisodiyot yoki sanoat tarmog'i sifatida ko'rib chiqish mumkin emas. Bugungi kun talabasi o'tgan yillardagi talabalardan tubdan farq qiladi. Ularni fanga va amaliyotga jalb qila olish uchun o'qituvchidan juda katta pedagogik mahorat, tarbiyaviy va aqliy usullar talab qilinadi. Shu bilan birgalikda har bir o'rganilayotgan mavzuning muqobil zamonaviy nanotexnologiya va dasturlardan foydalanib yecha olish masalasi ham, kelajak ehtiyojlari uchun matematika va matematik ta'lim berish jarayonlarini to'liq tashkillash muhimdir. Demak, matematikaning degradatsiyasiga barham berish, o'quvchilar ta'lim tizimi hamda amaliyoti uchun, va nihoyat istiqbolli tadqiqotlardan foydalanish uchun quyidagi xulosalar keltiriladi:

1) maktab va oliy o'quv yurtlarida ta'lim konsepsiyasini, xususan, tayanch o'quv rejasi, ta'lim dasturlari va metodikasini yangi bosqichga olib chiqish. Ta'lim sifati tavsiflarini monitoring qilish va yaxshilash. Talabalarni matematika va matematik ta'limning ahamiyati haqida xabardor qilish.

Darhaqiqat, matematikaning foydaliligi, uning qo'llanilishi va matematik modellashtirish nafaqat tabiatshunoslik, texnika, balki san'atdagi turli fanlarga oid masalalarni yechishda ham seziladi. Oliy ta'limda matematikani o'rganish kasbiy nuqtai nazardan bo'lsa talabalar uchun qiziq va albatta samarali bo'ladi.

2) Matematik ta'lim tizimining degradatsiyasini to'xtatish. G. G. Malinetskii

(2013) taklif qilganidek, fanni oyoqqa turg'izishdir.

Ta'lim tizimi bo'yicha tadqiqotlar shuni e'tirof etadiki, hozirgi vaqtda elektron ta'limning maqsadi imtihon topshirish, kredit olish va matematikani unutish uchun nima qilish kerakligini o'rgatishdir. Demak, talabalar o'zlari olgan kompetensiyalari va bilimlaridan qanday foydalanishlari haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar. Agar bu holat davom etsa, talabalar ta'lim hujjatlaridan boshqa hech narsani eslay olmaydilar.

3) Informatson va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda darslarni o'tkazish uchun o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitish. Matematik ta'lim bo'yicha onlayn kurslarni loyihalash, amalga oshirish va samaradorligini nazorat qilish.

Ushbu texnologiyalarni o'qitish va o'qitish jarayonlarida qo'llash bo'yicha dunyoga mashhur G.Simens (2010) "Zamonaviy ta'lim oldiga qo'yilgan muammolar" sarlavhali intervyusida o'zining qisqacha bayonotida Internet - ta'lim tizimidagi tanazzul hodisalariga sabab bo'lmaganini ta'kidladi.. Aslida, aksincha, bular ta'lim ehtiyojlariga, talabalarining kutganlariga va zamonaviy dunyoga hali moslashmagan zamonaviy ta'lim tizimlari, deb bayon qiladi.

Talabalar uchun matematika bo'yicha elektron o'quv kurslarini ishlab chiqish, takomillashtirish va samaradorligini monitoring qilish.

Buning ustida ishlayotganda, ushbu kurslarga kirish va talabalarining ehtiyojlari e'tiborga olish kerak. Materiallar mavzularini tanlash imkoniyati, talabalarining o'rganish tezligi, ta'lim usullari (mobil yoki onlayn) va rag'batlantirish usullari (murabbiylik yoki o'z-o'zini tarbiyalash) yaratilishi kerak.

4) Talabalarni rag'batlantirishning zamonaviy usullari va ularni tarbiyalash usullari klassik tushuncha va usullardan tobora uzoqlashib

bormoqda. Ushbu tendentsiyalar ta'lim tushunchalarini, maktab va o'qituvchining ishlash usullarini o'zgartiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erkinboyevna, T. N. (2023). MATEMATIKA FANINI O'QITISH ISTIQBOLLARI. *Scientific Impulse*, 2(15), 876-878.
2. Erkinovna, A. D. (2022). YUQORI SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI DARSLARDA QO'LLASH METODIKASI. *PEDAGOG*, 5(7), 1210-1214.
3. Mengishevich, O. J., & Amonovoch, X. A. (2023). MATEMATIKANING ZAMONAVIY METODLARI. *Journal of new century innovations*, 12(6), 28-31. Iqboljon, X. (2023). Matematika fanida funksiyalarni samarali o'qitish istiqbollari. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 1(2), 64-69.
4. Iyosjon o'g'li, X. I. (2023). The importance of credit in the market economy. *Open Access Repository*, 9(6), 265-267.
5. Kamoldinovna, S. Y. (2023). Turistik mahsulotlar va xizmatlarni diversifikatsiyalashni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 8, 66-69
6. Saal P. E., Graham M. A. Comparing the use of educational technology in mathematics education between South African and German schools //Sustainability. – 2023. – T. 15. – №. 6. – C. 4798.
7. qizi Azimova T. E. Economic directions in teaching mathematics //Intent Research Scientific Journal. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 54-56.
8. Raxmonova, V. (2023). The role and place of mathematical models in teaching students to solve optimization problems. *Modern Science and Research*, 2(4), 592-597.
9. Boltayev K. K., qizi Azimova T. E. Description of Real AW*– Factors of Type I //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 413-421.
10. Rakhimov, A. A., Raxmonova, N. V., & Salleh, Z. (2022). A connection between rickart real c^* -algebra and enveloping rickart c^* -algebra. *Journal of Mathematical Sciences and Informatics*, 2(2).
11. Qizi, T. M. M. (2022). The importance of studying $\varphi(x) = \cos(ax^2)$ functions in strengthening students' knowledge of trigonometric functions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 147-151.
12. Galimullina E., Ljubimova E., Ibatullin R. SMART education technologies in mathematics teacher education-ways to integrate and progress that follows integration //Open Learning: The Journal of Open, Distance and e-Learning. – 2020. – T. 35. – №. 1. – C. 4-23.
13. Verbruggen, S., Depaepe, F., & Torbeyns, J. (2021). Effectiveness of educational technology in early mathematics education: A systematic literature review. *International Journal of Child-Computer Interaction*, 27, 100220.
14. M.Jumayev .Matematika o'qitish metodikasi: Darslik /. Toshkent: «Turon-Iqbol», 2016-416-b
15. Matematika o'qitish metodikasi. Matematika bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik /S. Alixonov. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 304 b.
16. Савицкая Г.В. Анализ эффективности деятельности предприятия: Методологические аспекты. М.:ООО«Новое знание», 2003. 159 с.



ERUNEZ KASALLIGINI DAVOLASH USULLARI

Mamasoliyeva Madina Ulug'bek qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 05.04.2024
Qayta qabul : 12.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)
M.U.Mamasoliyeva



***Muallif bilan aloqa**
<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



abdulazizovasilbek1998@gmail.com

© Muallif. M.U.Mamasoliyeva

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ANNOTATSIYA

Bu maqolada dorivor o'simliklarning tibbiyotda xalq tabobatida qo'lanilishi va axamyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Enurezni davolashning xalq tabobatidagi samarali vositalaridan biri tabiiy asal hisoblanadi. Kechasi tanadagi suyuqlikni ushlab turish va asab tizimini tinchlantirish uchun uni yotishdan oldin iste'mol qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, yosh gilos shoxlari va quritilgan ko'k poyalarining qaynatmasi 15 daqiqa davomida damlangandan so'ng ichimlikka bir choy qoshiq asal qo'shiladi va bu damlamani bolaga kuniga ikki yoki uch marta ovqatlar orasida berilishi ham yaxshi samara ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR.

Enurez, arpabodiyon, imipramin, gipertenziya, bakteritsid, diuretik, antispazmodik, asal, makkajo'xori ipak choyi, ukrop urug'i, qorazira.

KIRISH.

Bugungi taraqiy etib borayotgan davrimizda tibbiyot hamda xalq tabobati ham birgalikda rivojlanib bormoqda. Bu davrda inson organizimi uchun zararsiz bo'lgan tabiiy va dorivor o'simliklardan foydalanib davolash kerak. Odamlarda peshob yoxud siydik tuta olmaslik bilan xarakterlanadigan kasallik. Enurez kasaligining eng keng tarqalgan turi **birlamchi enurez** hisoblanib, bu kasalik katta yoshli bolalarda peshob tuta olmaslikdan aziyat chekishi mumkin. Asosan enurezdan aziyat chekuvchilar bolalar sanaladi (barcha tashuvchilarning 94,5 foizi), o'spirinlar hissasiga 4,5%, kattalar hissasiga esa 1% to'g'ri keladi. Siydikni tuta olmaslik asosan uyqu paytida namoyon bo'ladi (75% tashuvchilarda), uyqudan tashqarida bu holat keng tarqalmagan. Ushbu kasallik yuzaga kelishining bitta yagona sababi mavjud emas. Bunga quyidagi omillar sabab bo'ladi: tug'ilish jarohati, orqa miya yoki miyaga pishxologik ta'sirlar. Shartli refleksning uzoq muddatli shakllanishi.

METODOLOGIYA.

Enurezni davolashda keng qo'llaniladigan dori vositasidan biri

Imipramin bo'lib faqatgina 50% samaradorlikni ko'rsatadi va terapiya ko'pincha kasallikning qaytalanishi bilan birga kechadi. Shuning uchun hozirgi vaqtda undan foydalanish tavsiya etilmaydi. Enurezni davolashning xalq tabobatidagi samarali vositalaridan biri tabiiy asal hisoblanadi. Kechasi tanadagi suyuqlikni ushlab turish va asab tizimini tinchlantirish uchun uni yotishdan oldin iste'mol qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, yosh gilos shoxlari va quritilgan ko'k poyalarining qaynatmasi 15 daqiqa davomida damlangandan so'ng ichimlikka bir choy qoshiq asal qo'shiladi va bu damlamani bolaga kuniga ikki yoki uch marta ovqatlar orasida berilishi ham yaxshi samara ko'rsatadi. Xalq tabobatida bir choy qoshiq asal bilan makkajo'xori popugi aralashmasini 20-30 daqiqa damlangandan, bolaga kuniga so'ng ichimlikka bir choy qoshiq asal qo'shiladi. Ushbu choyni kuniga ikki marta ovqat davomida berib borilishi ham yaxshi natijalarga olib keladi.

NATIJALAR.

Ukrop urug'larining enurez kasaligi uchun samaradorligi yuqori. Ushbu xalq vositasi immunitet tizimiga, ovqat hazm qilish va yurak-qon tomir tizimlariga foydali ta'sir ko'rsatadi, siydik kasalliklari, yallig'lanish va gipertenziya bilan kurashishga yordam beradi. Bu bakteritsid, diuretik, antispazmodik va tinchlantiruvchi ta'sirga ega.

Bularning barchasi biologik moddalarning yuqori konsentratsiyasida, jumladan :

- vitaminlar - B-guruhlari, A, C, E, PP;
- mineral tuzlar - fosfor, temir, kaltsiy, kaliy;
- saxaridlar;
- fitonsidlar;
- flavonoidlar;
- yog'lar va efir moylarni mavjudligida

MUHOKAMA.

Shu bilan birga dori sifatida arpabodiyon urug'lari ishlatiladi. Ular xalq tabobatida ham, an'anaviy tibbiyotda ham katta muvaffaqiyat bilan qo'llaniladi. Arpabodiyon sistit va buyrak kasalliklariga qarshi samarali vosita sanalib u ajoyib diuretik va xoleretik vositadir, shuningdek, sut bezlarining sekretsiyasini

kuchaytirish xususiyatiga ega. Arpabodiyon ko'katlar damlamasi yordamida qisqa vaqt ichida uyqusizlik va bosh og'rig'idan xalos bo'lishi mumkin. Arpabodiyon o'tining infuzioni tomirlarning kengayishiga, ichaklarning bo'shashishiga, diurezning kuchayishiga va qon bosimining pasayishiga, enurez kasaligini davolashga yordam beradi.

Xalq tabobatida siyib qo'yish (enurez) kasalligida quyidagi muolajalar tavsiya etiladi: jiyda mevasining qaynatmasidan kuniga uch mahal 100 grammdan 5 kun ichilsa, enurezga yaxshi foyda qiladi. Bir qoshiq ukrop urug'iga 1 stakan qaynoq suv solinadi va 2-3 soat damlab qo'yiladi. Tayyor bo'lgan damlamani uch mahal bir piyoladan ovqatdan 15 daqiqa oldin ichiladi. Qorazira, kashnich urug'i va sedana teng miqdorda olinib, maydalanadi. Bu aralashmaning 60 grammi 200 gramm asal bilan aralashtirilib, bir osh qoshiqdan ertalab va kechqurun qabul qilinadi. Muolaja davomiyligi – 2-3 hafta. 2 bog' isiriqqa bir chelak suv

quyib, 25 daqiqa past olovda qaynatiladi. Keyin tog'oraga quyib, shu suvga 30 daqiqa o'tiriladi. Ushbu muolaja 20 kun davomida uyquga yotishdan oldin qaytarilishi lozim.

XULOSA.

Xulosa o'rnida bolalarda uchiraydigan Enurez (siydik tuta olmaslik) kasalligida qollaniladigan tabiiy asal va

dorivor o'simliklar: arpabodiyon, ukrop urug'i, qora gilos, qora zira, kashnich kabi o'simliklarning foydali tomonlari hamda davolash samaradorligini yuqori ekanligini ko'rsatib o'tish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.R.Asqarov , Taboboat qomusi. Mumtoz so'z Toshkent 2019 yil 74-86
2. Hakimov S. A., Hakimov A. S, Toshmuhamedov A. A., Ukrop, sabzavot va poliz ekinlari urugchiligi, T., 2003.
3. Ruchkina N. Dill // Kimyo va hayot : jurnal. - 2009. - No 7. - S. 54-55.
4. Хужамшукуров, Н., Эшкobilов, Ш., Дилафруз, К., & Абдутолибов, М. (2023). ВЛИЯНИЕ БИОГУМУСА НА СОДЕРЖАНИЕ НИТРАТОВ В РАСТЕНИЯХ И ПЛОДАХ ОГУРЦА. Universum: химия и биология, (1-1 (103)), 24-29.
5. Abu Ali Ibn Sino „Tib qonunlari” 2-kitob. Toshkent 1992 yil
6. www.ziyonet.uz
7. www.arxiv.uz



**XURMO MEVASINING KIMYOVIY VA FOYDALI
XUSUSIYATLARI**

Mamasoliyeva Madinabonu Ulug'bek qizi

Andijon davlat universiteti talabasi

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 05.04.2024
Qayta qabul : 12.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)
M.U.Mamasoliyeva



***Muallif bilan aloqa**
<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



mamasoliyeva031200@gmail.com

© Muallif. M.U.Mamasoliyeva
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqoladan siz xurmo organizm uchun qanday foydali xususiyatlarga ega ekanligini, uni turli kasalliklarda qanday ishlatilishini va qanday kontrendikatsiyalar mavjudligini bilib olasiz.

Ekzotik meva provitamin A, C vitamini bilan boyitilgan ovqatlar ro'yxatiga kiritilgan C vitamini: organizm uchun 7 ta foydali xususiyat. Ilmiy faktlar va afsonalar.

KALIT SO'ZLAR.

Vitaminlari, mis, kaliy, ozuqaviy qiymati, najas miqdori, Marganets, Vitamin K, Diospiros, damlamalar, ich qotishi.

KIRISH.

Ekzotik mevalar ko'pincha odamlarning e'tiborini tortadi. Ammo ularning hammasi ham inson salomatligi uchun bir xil darajada foydali emas. Shifokorlar nafaqat yoqimli ta'mga ega, balki tanaga bir qator foyda keltiradigan mevalarga ustunlik berishni maslahat berishadi. Bular orasida xurmo mevasi ham mashhur xisoblanadi. Osiyo mevasining bir qismi sifatida u ortiqcha vazn bilan kurashishga yordam beradi, yallig'lanishni yengillashtiradi. Oziq moddalarning bir qismi yurak, qon tomirlari faoliyatini normallashtiradi, xolesterin va qandli diabet kasalligini kamaytiradi.

METODOLOGIYA.

Ekzotik meva provitamin A, C vitamini bilan boyitilgan ovqatlar ro'yxatiga kiritilgan C vitamini: organizm uchun 7 ta foydali xususiyat. Ilmiy faktlar va afsonalar. S vitamini: organizm uchun 7 ta foydali xususiyat. Ilmiy faktlar va afsonalar. Maqolada s vitaminining inson tanasiga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari keltirilgan. S vitaminining foydalari to'g'risida tasdiqlangan va isbotlanmagan faktlar. Uning tarkibi

piridoksinning yuqori konsentratsiyasi bilan ajralib turadi (vitamin B6 vitamin B6: boy tarkibga ega 15 ta tabiiy oziq-ovqat

O'rtacha kattalikdagi bitta xom yapon xurmosining ozuqaviy qiymati 118 kaloriya. Ushbu ko'rsatkich bilan meva 31 grammni o'z ichiga oladi. uglevodlar, 21 gr. Sahara, 6 gr. tolalar.

NATIJALAR.

Ekzotik o'simlikning mevalari pishirishda ham, an'anaviy tibbiyotda ham qo'llaniladi. Diospiros rezavorlarining barglari, ildizlari va po'stlog'idan tayyorlangan damlamalar, infuziyalar, choy:

gipertenziya bosimini pasaytirish uchun 13 ta oziq-ovqat qon bosimini pasaytirishga yordam beradi

Gipertenziya bosimini pasaytirish uchun 13 ta oziq-ovqat

Gipertenziya kasalligi uchun qanday oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash kerak? Maqolada siz kattalar va qariyalarda qon bosimini pasaytiradigan 13 ta mahsulotni topasiz. Bosimni pasaytirish uchun parhez tamoyillari.

qon tomirlarining tiqilib qolishining oldini olish;

qon tomiridan, ich qotishidan himoya qiling;

yallig'lanish va ortiqcha vaznga qarshi kurash;

qondagi shakar va xolesterin miqdorini nazorat qilish.

Oziqlantiruvchi	Miqdor	Kunlik norma	Oziqlantiruvchi	Miqdor	Kunlik norma
Kaloriya	70 kkal	3.5%	Fosfor	17 mg	4.5%
Uglevodlar	18.59 g	14%	Rux	0.11 mg	1%
Oqsil	0.58 g	1%	Vitaminlar		
Yog'lar	0,19 g	1%	Xolin	7.6 mg	1.5%
Ozuqaviy tolasi	3,6 g	9.5%	Folatlar	8 mkg	2%
Minerallar			Niatsin	0.100 mg	1%
Natriy	1 mg	0%	Piridoksin	0.100 mg	7.5%
Kaliy	161 mg	2.5%	Riboflavin	0.020 mg	1.5%
Kaltsiy	8 mg	0.8%	Tiamin	0.030 mg	2.5%
Mis	0.113 mg	12.5%	Vitamin C	7,5 mg	12.5%
Temir	0,15 mg	2%	Vitamin A	81 mg	3%
Magniy	9 mg	2%	Vitamin E	0.73 mΓ	5%
Marganets	0.355 mg	15%	Vitamin K	2.6 MKΓ	2%

MUHOKAMA.

Foydalarga qaramay, shifokorlar ichakni to'sib qo'yish xavfini bartaraf etish uchun faqat etuk xurmolarni iste'mol qilishni maslahat berishadi. Xomilaning ichak mikrobiotasiga ta'sirini oldini olish uchun siz o'zingizni kuniga 1-2 dona bilan cheklashingiz kerak.

Shifokorlar gastrit, toshbaqa kasalligi, gipertoniya, yod etishmovchiligi bo'lgan bemorlarga ekzotik mevalarni dietaga kiritishni maslahat berishadi. Xurmo tarkibidagi vitaminlar va minerallar ham quyidagilar uchun ishlatiladi:

yurak, qon tomirlari, buyraklar, oshqozon kasalliklarini davolash va oldini olish;

genitoüriner tizim ishini normallashtirish;

ortiqcha vazn bilan kurashish;

immunitetni mustahkamlash;

anemiya rivojlanish xavfini kamaytirish;

O'chokli alomatlarini yo'qotish kuchli bosh og'rig'i uchun 18 ta xalq davosi

Kuchli bosh og'rig'i uchun 18 ta xalq davosi
Maqolada bosh og'rig'ini xalq tabobati bilan davolash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Uyda migrendan qanday qilib oson va tez qutulish mumkin.

Mevaning sog'liq uchun foydalari bir qator ozuqa moddalarining yuqori

konsentratsiyasi bilan bog'liq. Shunday qilib, taxminan 168 gramm og'irlikdagi bitta xom yapon xurmosi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

A vitamini: RDI ning 19% ;

S vitamini: RDI ning 22% ;

B6 vitamini: RDI ning 13% ;

E vitamini: RDI ning 8% ;

K vitamini: RDI ning 5% ;

marganets: RDI ning 30% ;

mis: RDI ning 9% ;

kaliy: RDI ning 8%.

* RDI-organizmning kunlik ehtiyoji

Xurmoning sog'liq uchun foydalari antioksidantlarning yuqori miqdori bilan ham bog'liq, ular orasida olimlar S vitamini, polifenollar va Karotenoidlarni Beta-karotin deb atashadi: 15 ta foydali xususiyat va qaysi oziq-ovqat tarkibida

Beta-karotin: 15 ta foydali xususiyat va qaysi ovqatlar mavjud

Beta-karotin nima va u bizning sog'ligimiz uchun qanday foydali. Beta-karotinning teriga, sochlarga va umuman sog'liq uchun foydalari. Qabul qilish stavkalari va mahsulot tarkibi.

(provitamin A). Ikkinchisi nafaqat pulpada, balki terida ham ko'p miqdorda bo'ladi, buning natijasida ular boy to'q sariq rangga ega bo'ladi. Meva tarkibida mavjud bo'lgan karotenoidlar orasida olimlar lutein, astaxanthin, beta-karotin va beta-kriptoksantinni ham chaqirishadi. Ushbu va boshqa moddalar ko'z sog'lig'ini saqlashga, yurak-qon tomir tizimini normallashtirishga yordam beradi.

Xurmo tarkibi polifenollarga boy. Ular orasida olimlar ajralib turadi:

qahva, ferul, gal, Kumar va boshqa bir qator fenolik kislotalar;

flavonoidlar, shu jumladan antosiyaninlar, proantosiyanidinlar va katexinlar; taninlar.

Ushbu moddalar meva pulpasida, qobig'ida, barglarida mavjud. Ularning harakati umr ko'rish davomiyligini oshiradi, xotirani yaxshilaydi. Va physetin kabi flavonoid fenol tanadagi saraton hujayralarining o'sishini sekinlashtirishga yordam beradi.

Olimlar uzoq vaqtdan beri semirish va yallig'lanish o'rtasidagi o'zaro ta'sirni qayd etishgan. Shunday qilib, tanadagi yallig'lanish jarayonlari insulin va leptinga qarshilikni keltirib chiqaradi, bu esa yog ' birikmalarining ko'payishiga olib keladi.

Shu bilan birga, yog ' hujayralari yallig'lanishni kuchaytiradigan il-6 va Tnf-alfa kabi sitokinlarni ishlab chiqaradi. Kemiruvchilar ustida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar xurmo dietaga kiritilsa, xavfli o'zaro ta'sirni buzish mumkin. Uning tarkibida azot oksidi, Tnf-a, IL-1, IL-6 , prostaglandin E₂ va COX-2 kabi yallig'lanish birikmalarini kamaytiradigan fenollar mavjud.

20 nafar semiz bemorda o'tkazilgan Koreya pilot sinovida olimlar ekzotik mevani zanjabil bilan birgalikda iste'mol qilish degan xulosaga kelishdi. zanjabil ildizi — sog'liq uchun qanday foyda bor? Zanjabil ildizi-sog'liq uchun qanday foyda bor?

Ushbu ildizdan foydalanishga qarshi ko'rsatmalar va uning tarkibi.

6 hafta davomida u nafaqat yallig'lanish belgilarini, balki tana vaznini va tana yog'ini ham kamaytiradi.

Mevalarda oshqozon osti bezi lipazining mavjudligi organizmga parhez yog'larini osonroq singdirishga yordam beradi. Va qobiqdagi taninlar

oshqozon osti bezi lipaziga bog'lanib, ularni yog'ni yutish uchun kamroq qiladi.

Xurmo barglariga asoslangan ekstraktlar yog'li dietada bo'lgan semiz sichqonlarda jigar va qorin yog ' birikmalarini kamaytiradi. Ularning ta'siri triglitseridlar darajasini pasaytiradi qon triglitseridlarini tezda qanday kamaytirish mumkin-usullar, maslahatlar, samaradorlik

Qon triglitseridlarini tezda qanday kamaytirish mumkin-usullar, maslahatlar, samaradorlik

Triglitseridlar nima va ular tanada qanday rol o'ynaydi. Tibbiy va xalq davolanish usullari yordamida qon triglitseridlarini tushirishning to'g'ri darajasi va usullari, umumiy xolesterin, LDL, qon shakar, insulin va leptin. Bularning barchasi xurmoning yallig'lanish bilan og'rigan bemorlarda ortiqcha vaznga qarshi kurashish qobiliyatini tasdiqlaydi.

Yurak va qon tomirlarini sog'lom saqlash Yurak-qon tomir tizimini takomillashtirish Arteriyalar ichida blyashka to'planishi aterosklerozga olib keladi. Xurmo tarkibida mavjud bo'lgan antioksidantlar uning rivojlanishini sekinlashtirishga, yomon xolesterinning yallig'lanishini va

oksidlovchi shikastlanishini kamaytirishga yordam beradi.

Yaponiya aholisi an'anaviy ravishda qon bosimi uchun ekzotik meva barglaridan foydalanadilar. Bunga asosan flavonoidlar yordam beradi. Ularning ta'siri angiotensinga aylantiruvchi ferment (Ace) faolligini kamaytirishga yordam beradi, shuningdek bosimni pasaytiradigan dorilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xurmo iste'mol qilish yurak hujayralarini gipoksiya yoki kislorod etishmasligidan himoya qiladi.

Xolesterolni kamaytirish

Xolesterin miqdorini normallashtirish 66 kishida o'tkazilgan tajribalarda olimlar xurmo ekstrakti statin preparati bilan birgalikda qondagi yog' miqdorini kamaytirish qobiliyatini aniqladilar. 40 bemorda o'tkazilgan boshqa klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 5 g dan foydalanish. kuniga meva yomon (LDL) xolesterin miqdorini pasaytiradi, 3 g. ular yumshoqroq ta'sirga ega.

Kalamushlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu moddalar zararli bakteriyalar sonini

kamaytirish orqali foydali bakteriyalar sonini ko'paytiradi. Qon shakarini kamaytirishga yordam berib

Qandli diabetning oldini olish.

Bosimni pasaytirish uchun xalq tabobatida xurmo barglaridan ming yillar davomida foydalanilganiga qaramay, ularning ishlash printsipli olimlar uchun uzoq vaqtdan beri sir bo'lib kelgan. 68 prediabetik bemorda o'tkazilgan zamonaviy klinik tadqiqotlar meva ekstraktining tanadagi murakkab oqsil belgilariga ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqotlar ekzotik homilaning diabet rivojlanish xavfini kamaytirish, qondagi qand miqdorini kamaytirish qobiliyatini tasdiqlaydi. Bu tanadagi yog ' to'planishiga olib keladigan genlarning faolligini cheklash orqali sodir bo'ladi.

Qo'shimcha tajribalarga ko'ra, xurmoni me'yorida iste'mol qilish ovqatdan keyin qondagi glyukoza ko'tarilishining oldini oladi. Xurmoni hayvonlarning ratsioniga kiritish kraxmalning emishini cheklashga imkon beradi kraxmalning foydalari va zarari-organizm uchun 8 ta foydali xususiyat

Kraxmalning foydalari va zarari - organizm uchun 8 ta foydali xususiyat

Tadqiqotlar Altsgeymer kalamushlarida kognitiv funktsiyani saqlashda xurmo barglariga asoslangan ekstraktning samaradorligini ko'rsatadi. Bu miya hujayralarida asosiy antioksidantlarni ko'paytiradigan flavonoidlar va triterpenoidlar tufayli yuzaga keladi.

Boshqa bir tadqiqot ekstraktning miya hujayralarining shikastlanishini cheklash va ularning erkin radikallardan o'lish xavfini kamaytirish qobiliyatini ko'rsatadi. Ular Altsgeymer kasalligining rivojlanishiga to'sqinlik qilib, sichqonlarda xotirani yaxshilaydi.

Meva ekstraktlari, shuningdek, miya faoliyatini buzilishiga olib keladigan yallig'lanish chiqindilari va nf-kb miqdorini kamaytirishga qodir. Ularning ta'siri miya hujayralarini yomon qon oqimi va kislorod darajasi (ishemiya va gipoksiya) tufayli shikastlanishdan himoya qiladi. Ekstraktlar kalamushlarni glutamat toksikligidan himoya qiladi MSG: organizmga ta'siri, ilmiy faktlar

Monosodyum glutamat: organizmga ta'siri, ilmiy faktlar

Monosodyum glutamat, aka e621 xun takviyesi, aka MGS. Maqolada biz monosodyum glutamatning zarari to'g'risida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar haqida gaplashamiz. Ushbu qo'shimcha qanday zarar etkazishi mumkin va uni dietadan butunlay chiqarib tashlash kerakmi?

Xurmo choyining kislota oqimiga ta'siri. Sinovlarning yetishmasligiga qaramay, xurmo choyi ko'pincha kislota oqimi bilan kurashish uchun uy davosi sifatida ishlatiladi. Zanjabil va doljin qo'shilishi bilan ekzotik mevalar asosida tayyorlanadi darchin-17 foydali xususiyat.

XULOSA

Xulosa o'rnida Foydali va dorivor xususiyatlarning katta ro'yxatiga qaramay, xurmo hali ham bir qator

kontrendikatsiyaga ega: Uch yoshgacha bo'lgan bolalar xurmo iste'mol qilishni cheklashlari kerak; Siz ushbu berryni ich qotishi, gemorroy, diabet, shuningdek og'ir semirish uchun ishlata olmaysiz; Xurmo sizning dietangizda allergik reaksiyaga sabab bo'lsa, tavsiya etilmaydi. Qandli diabet bilan og'rigan bemorlar ham uni me'yorida iste'mol qilishlari kerak, chunki u glyukoza miqdorini oshiradi va qondagi qand miqdorini oshirishi mumkin. Qon tomirlarining tiqilib qolishini oldini olish; qon tomirlaridan, ich qotishidan himoya qilish; yallig'lanish va ortiqcha vaznga qarshi kurashish; qondagi shakar va xolesterin miqdorini nazorat qilish; miya faoliyatini normallashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.R.Asqarov , Taboboat qomusi. Mumtoz so'z Toshkent 2019 yil 74-86
2. Hakimov S. A., Hakimov A. S, Toshmuhamedov A. A., Ukrop, sabzavot va poliz ekinlari urugchiligi, T., 2003.
3. Ruchkina N. Dill // Kimyo va hayot : jurnal. - 2009. - No 7. - S. 54-55.
4. Хужамшукуров, Н., Эшкobilов, Ш., Дилафруз, К., & Абдутолибов, М. (2023). ВЛИЯНИЕ БИОГУМУСА НА СОДЕРЖАНИЕ НИТРАТОВ В

РАСТЕНИЯХ И ПЛОДАХ ОГУРЦА. Universum: химия и биология, (1-1 (103)), 24-29.

5. Abu Ali Ibn Sino „Tib qonunlari” 2-kitob. Toshkent 1992 yil

6. www.ziyonet.uz

7. www.arxiv.uz



**QUSHLARNING QISHKI XULQ ATVORI VA
EKOLOGIYASI**

Abdulazizov Asilbek Akramjon o'g'li^(a)

Ummatov Anvar Muxtorovich^(b)

^(a)Andijon davlat universiteti magistranti

^(a)Andijon davlat universiteti Zoologiya va biokimyo kafedrasida dotsenti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 05.04.2024
Qayta qabul : 12.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)
***A.A.Abdulazizov**
A.M.Ummatov



***Muallif bilan aloqa**
<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



abdulazizovasilbek1998@gmail.com

**© Muallif. A.A.Abdulazizov va
boshqalar**

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ANNOTATSIYA

Maqolada Andijon viloyati sharoitida qushlarning qishki xulq atvori va ekologiyasiga oid ma'lumotlar berilgan.

Andijon viloyati sharoitida keyingi yillarda ko'klamzorlashtirish, kichik suv xavzalarini, istiroxat bog'larini, sun'iy o'rmonlarni barpo etilishi, ayniqsa, shahar chegara zonalarini kengaytirilishi, ko'plab nina bargli daraxtlarni ekilishi qushlar turlarini o'ziga jalb etib, shahar ornitofaunasini shakllanishiga olib keldi.

KALIT SO'ZLAR.

Ornitofauna, region, tur tarkibi, zona, moslashuvchan, monitoring, ko'chmanchi, gala hosil qiluvchi, eksperimental tekshiruv, migratsiya.

KIRISH.

Andijon viloyati sharoitida keyingi yillarda ko'kalamzorlashtirish, kichik suv xavzalarini, istiroxat bog'larini, sun'iy o'rmonlarni barpo etilishi, ayniqsa, shahar chegara zonalarini kengaytirilishi, ko'plab nina bargli daraxtlarni ekilishi qushlar turlarini o'ziga jalb etib, shahar ornitofunasini shakllanishiga olib keldi.

Mayna, *chug'urchuq*, *jibljibon*, *qora shaq-shaq*, *qumri* kabilar ornitofauna tarkibiga kelib qo'shib maynalar bilan birga, qora shaq-shaqlar ham o'z tarqalish areallarini kengaytirib, xatto axoli yashaydigan punktlarda ham uya qilib ko'payishga moslashib bormoqda. Ularni plastik yani ikkilamchi tartibda yangi sharoitlarda yashay oladigan "Egiluvchan-moslashuvchan" turlar qatoriga kiritish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ularning hayoti ko'p xollarda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lib, xulq-atvorini, ko'payish xususiyatlarini o'rganish bilan birga ularning soni bo'yicha monitoring sistemasini ishlab chiqish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Chumchuqsimonlarning yirik vakillari xisoblangan qarg'asimonlarning vakillari ko'chib yurish paytida katta gala hosil qilib ba'zan noxush xolatlarga olib kelishi mumkin.

METODOLOGIYA.

Qushlarda migratsiya uchun kerakli umumiy yo'nalishni aniqlaydigan tug'ma migratsion instinkt bo'lishligi eksperimental tekshirishlar va dala kuzatishlaridan ma'lum. Qush tomonidan migratsiya vaqtida tanlangan umumiy yo'nalish ko'rish organi ko'z yordamida bajariladi. Chunki migratsiya vaqtida qushlar odatlangan landshaftlar, daryo oqimi, o'rmonlar, dengiz qirg'oqlari bo'ylab uchadi. Gala bo'lib uchish xam migratsiya vaqtida ancha qo'l keladi, chunki galadagi qushlarning bazilari bu yo'lni avval bosib o'tgan bo'lishi mumkin. Lekin ba'zi qushlarning bu yilgi bolalari yovvoyi o'rdaklar misolida tahlil qilingan bo'lib, o'zlari mustaqil ravishda gala bo'lib uchib ketishlari, ota-onalar qaysi yo'ldan borgan bo'lsa, bular ham

adashmasdan shu yo'ldan uchib borishligi o'rganilgan.

NATIJALAR.

Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, qushlarning uchib ketishi turli muddatlarga to'g'ri keladi. Qaldirg'och, bulbul, zarg'aldoq va laylaklar hali issiq, ozuqa yetarli bo'lishiga qaramasdan ancha barvaqt uchib ketadi, lekin g'ozsimonlar vakillari yovvoyi o'rdak, churрак, oqqush va g'ozlar suv havzalari muzlab oziq topolmay qolgandan so'ng, uchib keta boshlaydi. Kuzda kunlarning qisqarishi qushlarning qishlov joyiga uchib ketishi uchun signal bo'ladi. Qish bo'lmaydigan tropik mintaqalarda yashovchi qushlar ham migratsiya qiladi. Ularning uchib ketishi qurg'oqchilik, sel – namgarchilik, ozuqani kamayishi bilan bog'liq mavsumiy moslanish hisoblanadi.

MUHOKAMA.

Kuzgi-qishgi migratsiya davrida katta galalar tarkibida

Go'ngqarg'a (*Corvus frugilegus* L.) – 26%; Mayna (*Acridotheres tristis* L.) - 29 % ; Ola qarg'a (*Corvus cornix* L.) -

16 % ; Qora qarg'a (*Corvus corone* L.) – 12 %;

Zag'cha (*Corvus monedula* L.) – 10 % ; Turkiston dala chumchug'i (*Passer montanus* L.) – 5-6 % ; So'fito'rg'ay (*Calerida cristata* L.) – 3-4 % ni tashkil etishligi;

Bahorgi –yozgi migratsiya davrida esa, asosan qaldirg'ochlar, chug'urchuqlar va maynalar galalari dominantlik qilishligi, zag'izg'on, so'fito'rg'aylar, jibljibonlar ayrim galalar tarkibida uchrashligi qayd etilgan.

Qushlarni aviatsiya bilan to'qnashuvlari tufayli, qator noxush xolatlar yuzaga chiqishi mumkin, ularni oldini olish maqsadida, qushlar sonini doimiy nazorat qilishga to'g'ri keladi.

Aeroport xududidagi, ayniqsa samolyotlar qo'nadigan va ko'tariladigan mavsumiy va doimiy uchish trassalarida, ko'chib yuruvchi qushlar sonini o'rganish va nazorat qilish muhim hisoblanadi.

Noxush voqealarni oldini olish maqsadida, qushlarning kunduzgi ovqatlanish aktivligini, tunash

joylarini, uyalar sonini va dala ekinlar xolatini o'rganish, uchish trassalarning atroflaridagi begona o'tlarni vaqtida tozalab turish, ahlatxonalarini tozaligini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Qayd etish lozimki, qushlarning kunduzgi aktivligi bilan bog'liq kuzgi-qishgi migratsiya davrida qarg'alar, mayna, zog'cha, so'fito'rg'ay, chumchuqlar;

bahorgi –yozgi davrda esa, asosan qaldirg'ochlar, chug'urchuqlar va maynalar ko'chib yurish xususiyatlarini tahlildan o'tkazish;

-qushlarning tungi tunash joylarida to'planib, bioifloslanishlarini sodir qilishini oldini olish maqsadida, ularning bioekologiyasini chuqurroq o'rganish muhim hisoblanadi.

Andijon viloyati sharoitida qushlarni xududiy uchib kelib ketishiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- O'troq qushlar yil davomida ma'lum xududiy biotop bilan bog'libo'lib, uni tashlab ketmaydi. Ularga qirg'ovul, kaklik, musicha, g'urrak, qora shaq shaq, mayna, boyo'g'li, uy va dala chumchuqlarini kiritish mumkin.

- Ko'chmanchi qushlarni doimiy "vatani" bo'lmasdan ko'payish mavsumidan keyin, noaniq yo'nalishlarga qarab bir necha ming kilometr masofalarga gala hosil qilib uchib ketadi, ma'lum muddatdan so'ng qaytib keladi. Ularga qarg'asimonlar, zaxchalar misol bo'lib, yo'l yo'lakay katta galalar hosil qiladi.

- Kelib ketuvchi qushlar uchun minglab kilometr masofadagi sharoiti qulay joylar muhim bo'lib, ko'payish uchun uchib boradi, ko'payib bo'lgach yana qaytib keladi. Ularga yovvoyi g'ozlar, o'rdaklar, ko'k qarg'alar, kurkanaklar, churraklar, qaldirg'ochlar, bedanalar, chug'urchuqlar kiradi.

- Qishlovchi qushlar faqat qish davrida uchib kelib, qishni o'tkazib yana uchib ketadi. Ularga nuqtali chug'urchuqlarni, sa'valarni, aytim yirtqich qushlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

XULOSA.

O'lkamizda noyob qushlar xilma-xil, negaki, ularning 463 turi

fanga ma'lum. E'tiborlisi, ularning 48 turi kamyob bo'lib, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan. Qushlarning ko'payishida cho'lli va tog'li xududlarni, dasht mintaqalarni va madaniy vohalarni

shuningdek, ayrim xududiy, suv-botqoq, to'qay zonalarni, sun'iy ko'l va suv omborlarni saqlanib qolishi biologik xilma-xillikni saqlab qolishda katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Богданов О. П. Ўзбекистон ҳайвонлари. Тошкент, "Ўқитувчи нашриёти", 1983
2. Воронов А.Г. Биogeография с основами экологии. Москва, Изд-во Московского университета, 1987- 260 с.
3. Гладков Н.А. Некоторые вопросы зоогеографии культурного ландшафта(на примере птиц). Уч.зап.МГУ, 1958, вып. 197



**O'ZBEKISTONDA UCHRAYDIGAN AYRIM
O'SIMLIKLARNING YALLIG'LANISHGA QARSHI
XUSUSIYATLARINI ANIQLASH**

Nabiyev Jasurbek Qosimjon o'g'li^(a) 
Akbarov Shoxjahon Akmaljon o'g'li^(a) 
Mukhammedov Iqbol Ilham o'g'li^(b)

^(a)Andijon davlat universiteti talabasi
^(a)Andijon davlat universiteti Genetika va biotexnologiya kafedrasida dotsenti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 25.04.2024
Qayta qabul : 29.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)
*N.Q.Nabiyev
**Sh.A.Akbarov
I.I.Mukhammedov

*Muallif bilan aloqa
*<https://orcid.org/0009-0002-0641-2623>
**<https://orcid.org/0009-0000-7192-6626>

 jasurbeknabiyev865@gmail.com

© Muallif. N.Q.Nabiyev va boshqalar

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ABSTRACT

Nowadays, new types of inflammation are emerging. Each of them is related to the activity of individual organs and organ systems. In general, all diseases are actually "Inflammation". Their development is different depending on acute and chronic conditions. This article presents information about their molecular mechanisms and some of the plants used in folk medicine to combat it.

KEY WORDS

Inflammation, molecular mechanism, chemical composition, cyclooxygenase (SOG), *Prostaglandins*, *Rosa L*, *Sinapis arvensis*, *Amygdalus communis L*.

Абстракт. В настоящее время появляются новые виды воспалений. Каждый из них связан с деятельностью отдельных органов и систем органов. Вообще все болезни на самом деле являются «Воспалениями». Их развитие различно в зависимости от острых и хронических состояний. В данной статье представлена информация об их молекулярных механизмах и некоторых растениях, используемых в народной медицине для борьбы с ним.

Ключевые слова: Воспаление, молекулярный механизм, химический состав, циклооксигеназа (СОГ), простагландины, Rosa L, Sinapis arvensis, Amygdalus communis L.

Аннотация. Hozirgi kunda yallig'lanishning yangidan-yangi turlari kelib chiqmoqda. Ularning har biri alohida organlar va organlar sistemasining faoliyati bilan bog'liq. Umumiy qilib olganda, hamma kasallik aslida "Yallig'lanish" hisoblanadi. Ularning rivojlanishi o'tkir va surunkali holatlarga qarab har xil bo'ladi. Bu maqolada ularning molekular mexanizmlari hamda unga qarshi kurashishda xalq tabobatida

qo'llaniladigan o'simliklarning ayrimlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yallig'lanish, molekular mexanizm, kimyoviy tarkib, siklooksigenaza (SOG), Prostaglandinlar, Rosa L, Sinapis arvensis, Amygdalus communis L.

KIRISH.

Yallig'lanish ko'pincha og'riq bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon bo'lib, qon tomirlari o'tkazuvchanligini oshirish, oqsil denatüratsiyasining kuchayishi va membrana o'zgarishi kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Tanadagi hujayralar mikroblar, jismoniy omillar yoki kimyoviy vositalar tomonidan zararlanganda, zarar stress shaklida bo'ladi.

To'qimalarning yallig'lanishi stressga javob berish natijasida yuzaga keladi. Bu shikastlangan hududda qizarish, og'riq, issiqlik, shishish va funktsiyalarni yo'qotish bilan tavsiflangan himoya reaksiyasi. Funktsiyani yo'qotish zararining

joylashuvi va darajasiga qarab sodir bo'ladi. Yallig'lanish tananing o'ziga xos bo'lmagan ichki mudofaa tizimlaridan biri bo'lganligi sababli, tasodifiy kesilgan to'qimalarning reaksiyasi issiqlik, radiatsiya, bakterial yoqi virusli invaziya natijasida kuyish natijasida kelib chiqqan boshqa turdagi to'qimalarning shikastlanishiga o'xshaydi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Prostoglandinlar - tananing deyarli barcha to'qimalarida, shu jumladan qon tomirlari devorlarida sintezlanadigan gormonga o'xshash moddalar. Ular qon bosimini, bachadon qisqarishini va boshqa bir qator fiziologik jarayonlarni tartibga solishda ishtiroq etadilar.

Prostaglandinlar yog'ga o'xshash moddalar (lipidlar) guruhiga kiruvchi eikosanoidlarga mansub kichik molekulalardir.

Bu guruhga shuningdek, kimyoviy tuzilishga o'xshash birikmalar - yallig'lanish va allergik reaksiyalarda rol o'ynaydigan leykotrienlar va qon ivishida ishtiroq etadigan tromboqsanlar kiradi. Barcha eikosanoidlar umumiy tarkib -

araxidon kislotadan hosil bo'lib, to'yinmagan yog'li kislotalar sinfiga kiradi va boshqa yog' kislotasi - linolenikdan sintezlanadi, u oziq-ovqat bilan inson tanasiga kiradi[1.5].

METODOLOGIYA.

Yallig'lanishning molekular mexanizmlari. Siklooqsigenazalar, SOG (ing. Cyclooxygenase, COX) - prostaglandinlar, prostatsiklinlar va tromboqsanlar kabi prostanoidlarni sintez qilishda ishtiroq etadigan fermentlar guruhi. Siklooqsigenazalarning farmakologik ingibirlanishi yallig'lanish va og'riq belgilarini kamaytiradi, bunday ingibitorlarga aspirin va ibuprofen misol bo'ladi. Ba'zan "prostaglandin sintaza", "prostaglandin sintetaza" atamaları siklooqsigenazalarga nisbatan qo'llaniladi.

SOG ni batafsil o'rganishda ushbu fermentlar turli to'qimalarda joylashganligi, aspiringa o'xshash dorilarga turli xil sezgirlik spektrini ko'rsatishi aniqlandi, bu esa ferment izoformalarining mavjudligini taxmin

qilishga imkon berdi. Odamlarda SOG ni kodlaydigan ikkita gen tasvirlangan: COX-1 va COX-2. Birinchi gen mahsulotining alternativ qo'shilishi fermentning ikkita shaklini hosil qiladi. Siklooqsigenazalar araxidon kislotasini prostaglandin H₂ ga aylanishini katalizlaydi (PGH₂, boshqa prostaglandinlar, prostatsiklin va tromboqsan A₂ ning o'tmishdoshi) [2.65].

NATIJALAR.

O'simliklarning yallig'lanishga qarshi xususiyatlarini o'rganish.

1. Qonni (5 ml) oling va 1: 1 nisbatda oddiy tuz eritmasi bilan 3 marta yuving. Yakuniy qon pıhtısı 10% hajmdagi konsentratsiyada sho'r suv yordamida tayyorlangan.
2. Turli konsentratsiyalarda (1000, 800, 600, 400 va 200 mkg/ml) o'rganilayotgan

ekstraktdan 1 ml tayyorlang va distillangan suvda (DMSOda ham eritilishi kerak) eritiladi.

Aspirin ijobiy nazorat sifatida qabul qilinadi.

3. Probirkaga 1 ml tekshiriluvchi probirka quyiladi, unga 1 ml hajm bo'yicha 10% li qon eritmasidan qo'shiladi va aralashma suv hammomida 56°S haroratda 30 daqiqa ushlab turiladi. Keyin xona haroratiga qadar sovutiladi.

Aralash 2500 rpm tezlikda 5 minut davomida sentrifugalanadi va yuqori qismdagi suspenziyaning optik zichligi spektrofotokolometrda 560 nm to'lqin uzunligida kuzatiladi (erituvchining o'zi nazorat sifatida ishlatiladi) [3.].

O'rganilgan o'simliklarning natijalari:

Mahalliy nomi	Ilmiy nomi	Ekstrakt olingan a'zozi	Olingan biomassa (gr)	Ajratib olingan ekstrakt miqdori (mg)	Yallig'lanishga qarshi faolligi (%)
Oddiy qo'g'a	<i>Typha orientalis</i>	bargi	5.15	50	87
Oddiy sho'ra	<i>Chenopodium vulgare</i>	bargi, urug'i, poyasi	13.8	320	80
Qoqio't	<i>Dandelion officinalis</i>	bargi, urug'i, guli	13.13	60	96
Qalampiryalpiz	<i>Mentha piperita</i>	guli	20.86	840	0
Amerika suvo'ti	<i>Lycopus virginicus</i>	bargi, poyasi	20.87	840	7.03
Oddiy pechak	<i>Convolvulus L.</i>	bargi, poyasi	5.3	250	86
Parmachak	<i>Caesius L.</i>	bargi, poyasi	5.09	370	86

MUHOKAMA.

Rosa L(oddiy namatak). Mevasi tarkibida 4-6% gacha bazan 15% C vitamini, B2, P, E va K tarkibi, 12-27 mg% karotin, 29% gacha organik (limon, olma va boshqa kislotalar) 18% gacha qandlar, 3,7% gacha pektin, 4,5% gacha osh lovchi moddalar mavjud. Namatak urugida va boshqa qismlarida faol birikmalar bor. Namatak turlarining mevasi turli vitamin saklovchi multivitaminlarga boy, yani tabiiy oziq-ovqat konsentrati deb yetishtiriladi. Yuqori vitaminli turlari (Begger na'matagi va Fedchenko na'matagi) vitamin tanqisligi kasalliklarini davolash va qabul qilish qabul qilish uchun foydalaniladi. Urugidan olingan moyi va mevasining yumshoq qismidan tayorlangan moyli ekstrakti - karatolin kuiganni, trofik yaralarni, ekzema, teri kasalliklarini, ultrabinafsha nuridan kuygan joylarni, yarali kolit va boshqalarni davolashda ishlatiladi. Na'matak turlarining asosan vitaminli konsentratlar, sharbat tayorlanadi, vitamin C (askorbin kislotasi) mahsulot, quruq mevasidan tabletka va xabdori mahsulot tayorlanadi[6.5].

Sinapis arvensis(xantal). Xantal urug'i tarkibida sinigrin (kukunida 15% gacha) glikozidi bo'ladi. Sinigrin urug' tarkibidagi mirozin fermenti ta'sirida glukoza, kaliy bisulfat va allilizotiotsianatga (xantal efir moyiga) parchalanadi. Fermentatsiya jarayoni o'tkazilgan urug'dan xantal efir moyini suv bug'I yordamida xaytab olish mumkun. Xantal urug'ida 1,17-2,89% efir moyi bor. Xantal efiri 40% allilgorchitsa moyidan, 50% krotonilgorchitsa moyidan va sianannil hamda juda oz miqdorda dimetilsulfid, uglerodsulfid va boshqa birikmalardan tashkil topgan. Urug'da yana 23-47% yog' va 26% gacha oqsil moddalar bo'ladi. Xantal preporatlari yallig'lanish xarakteriga ega kasalliklarda miozid, bronxit, bod kasalliklarida qo'llaniladi[5.7].

Amygdalus communis L(oddiy bodom). Ikki tur mindal urug'i ham 20-60% moy saqlaydi. Emulsin (glikozidaza) fermenti va 3% sianogen glikozid - amigdalinalin bor. Ishlatilishi. Moyi dorilarni erituvchisi sifatida ishlatiladi. Moy siqib olingan goldiq

kunjaradan achchiq - bodom suvi olinadi. Shirin bodom kunjarasidan esa kosmetikada ishlatilish uchun foydalaniladi. Achchiq bodom urug'i zaharli, agar bola 5-10 dona urug' esa, zaharlanishi mumkin. Achchiq bodom suvini olish uchun, achchiq bodom kunjarasini ustiga iliq suv quyib bir necha soat iliq joyda gidroliz ketishi uchun saqlanadi. Madaniy shirin bodom yadrolarida yog'li yog' (40-60% gacha), oqsil moddalar (taxminan 30%), shilliq, vitaminlar, bo'yoq moddalar -karotin, karotinoidlar, likopen va boshqalar, shuningdek efir moyi (0,5-0,8%), bu ularning hidini va amigdalini glikozidining izlarini aniqlaydi. Yog'

yog'ida oleyk (80%) va linoleik (15%) kislotalarning glitseridlari mavjud.

XULOSA.

Shirin bodomning qobig'i bo'lmagan urug'laridan olingan yog'da oz miqdorda linolenik va miristik kislotalar mavjud bo'lib, ular qobiqli urug'lardan olingan yog'da yo'q. Yovvoyi achchiq bodom urug'lari zaharli bo'lib, amigdalini glikozidining mavjudligi sababli parchalanib, gidrosiyani kislotasi, benzaldegid va glyukoza chiqaradi. Butun achchiq bodom yadrolari hech qanday hidga ega emas. Dilimlanganda, ular benzaldegid tufayli o'ziga xos bodom hidiga ega bo'ladilar. [7.5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safin M.G., Ruziyev R.S., Aliqulov B.S. -Biologik faol va dorivor moddalar biotexnologiyasi. "5A420104-Biotexnologiya" mutaxassisligi magistrleri uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2013.
2. S.S Azizova –Farmokologiya. Toshkent- "Yangi asr avlodi" 2006.
3. Sadique J, Al-Rqobahs WA, Bughaith and EIGindi AR. The bioactivity of certain medicinal plants on the stabilization of RBC membrane system. *Fitoterapia* 1989; 60:525-532. Sakat S, Juvekar AR, Gambhire MN. In vitro antioxidant and anti-

inflammatory activity of methanol extract of *Oxalis corniculata* Linn. Int J Pharm PharmSci 2010;2:146-155.

4. <http://wikipedia.org/>

5. Э.Т. Бердиев, Э.Т. Ахмедов “ТАБИЙ ДОРИВОР УСИМЛИКЛАР” Тошкент - 2018 р (укув кулланма). - Тошкент, УзР ФА Минитипографияси, 2018 -188 бет.

6. Y.R. Toshmatov, Sh.A. Sulaymonov, G'.O. Mamajonov “GLIKOZIDLAR” – Namangan-2017 (uslubiy qo'llanma) Namangan, MamDU 2017 [125b].

7. A.Imomaliyev, A.Zikiryojev “O`simliklar bioximiyasi”- Mexnat nashriyoti 2-nashr Toshkent -1987-yil.



INTERNET TARIXI: DUNYOMIZNING RAQAMLI O'ZGARISHI

Abdusamatov Samandarjon Ro'zimaxammad o'g'li

Andijon davlat universiteti TSNQB bosh mutaxassisi

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 02.04.2024
Qayta qabul : 17.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

S.R.Abdusamatov



Muallif bilan aloqa
<https://orcid.org/0009-0006-4405-0490>



abdusamatovsamandar1@gmail.com

© Muallif. S.R.Abdusamatov

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda butun dunyoni qamrab olgan, har bir korxonada, maktab, ishlab chiqarish fabrikalari va turli xil ijtimoiy soha obyektlariga kirib borgan global tarmoq haqida so'z boradi va bu maqolada global tarmoqning tarixi, kim tomondan va qanday maqsadda foydalanish uchun yaratishgani va hozirgi kunda hayotimiz uchun qanchalik zarurligi haqida so'z boradi. Internetning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tarqalishi zamonaviy dunyoning eng muhim texnologik evolyutsiyalaridan biridir.

KALIT SO'ZLAR

Kalit so'zlar: Internet, IoT, ARPANET, AQSH, TCP/IP, WWW.

A HISTORY OF THE INTERNET: THE DIGITAL TRANSFORMATION OF OUR WORLD

Abstract: This article talks about the global network that now covers the whole world, has penetrated into every enterprise, school, manufacturing plant and various objects of the social sphere, and this article describes the history of the global network, by whom and for what purpose it was created. and how necessary it is for our lives today.

Keywords: Internet, IoT, ARPANET, USA, TCP/IP, WWW.

ИСТОРИЯ ИНТЕРНЕТА: ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ НАШЕГО МИРА

Аннотация: В данной статье рассказывается о глобальной сети, которая сейчас охватывает весь мир, проникла на каждое предприятие, школу, производственный завод и различные объекты социальной сферы, а также в данной статье описана история создания глобальной сети, кем и для чего с какой целью он был создан и насколько он необходим для нашей сегодняшней жизни.

Ключевые слова:

Интернет, IoT, ARPANET, США, TCP/IP, WWW.

KIRISH

Bugun biz yashayotgan raqamli asrning asoslaridan biri bo'lgan internet insoniyatning muloqot qilish va axborotga kirish usullarini tubdan o'zgartirdi. Biroq, Internetning bugungi kunga aylanishi uzoq va murakkab jarayonning natijasidir. Internetning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tarqalishi zamonaviy dunyoning eng muhim texnologik evolutsiyalaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Internetning yaratilishi va dastlabki davri

Internetning asoslari Sovuq urush davrida AQSh harbiy tadqiqotlari bilan qo'yilgan. 1960-yillarda kompyuterlarni bir-biri bilan aloqa qilish imkonini beruvchi ARPANET deb nomlangan tarmoq yaratildi. Bu internetning birinchi prototipi hisoblanadi va tadqiqotchilar o'rtasida ma'lumot

almashishni osonlashtirish uchun ishlatilgan.

1980-yillarning oxirida ARPANET-dan ilhomlanib, zamonaviy Internetning asosini tashkil etuvchi TCP/IP protokoli ishlab chiqildi. Ushbu protokol kompyuterlarga turli tarmoqlar o'rtasida aloqa o'rnatish imkonini berdi va internetni kengaytirish imkonini berdi.

METODOLOGIYA.

Internetni jamoat va tijorat maqsadlarida foydalanish uchun ochish

1990-yillarning boshlarida Butunjahon Internet tarmog'ining (WWW) ixtiro qilinishi internetning ommaga ochilishini tezlashtirdi. WWW foydalanuvchilarga veb-brauzerlar orqali veb-sahifalarga kirishni osonlashtirdi va Internetdan foydalanishni ommalashtirdi.

Bu davrda tijorat maqsadlarida foydalanish ham tez sur'atlar bilan o'sdi. Kompaniyalar Internetni marketing, elektron tijorat va aloqa vositasi sifatida kashf etdilar. Bu internetning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirining kuchayishiga olib keldi.

NATIJALAR.

Internetning ijtimoiy ta'siri

Internetning tarqalishi jamiyatlarning tuzilishi va madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Bu aloqa, ta'lim, biznes, madaniyat va siyosat kabi sohalarda katta o'zgarishlarga olib keldi. Internet axborotga kirishni demokratlashtirdi va butun dunyo bo'ylab hamjamiyatlarni shakllantirish imkonini berdi.

Biroq, internetning tarqalishi raqamli tafovutlarni ham ochib berdi. Butun dunyo bo'ylab internetga kirish va ko'nikmalarda katta farqlar mavjud, bu axborotdan teng foydalanish hali ham maqsad ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Internet tarmog'ining hozirgi kundagi hayotimizga qay darajada ta'sir o'tkazayotganini turli misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Jumladan,

❖ Axborotga kirish va almashish: Internet ma'lumotlarga tez va oson kirishni ta'minlaydi. Internet orqali foydalanuvchilar bir zumda barcha turdagi ma'lumotlarga kirishlari mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy media platformalari, bloglar

va onlayn forumlar kabi vositalar orqali odamlar butun dunyo bo'ylab o'z bilim va tajribalarini baham ko'rishlari mumkin.

❖ Muloqot va ulanish: Internet butun dunyodagi odamlarni birlashtiradi. Ijtimoiy media platformalari, elektron pochta, xabar almashish ilovalari va video konferensiya vositalari tufayli odamlar tez va samarali muloqot qilishlari mumkin. Bu uzoq masofalardagi odamlar o'rtasidagi shaxsiy va ish munosabatlarini mustahkamlaydi.

❖ Elektron tijorat va biznes imkoniyatlari: Internet ish dunyosini o'zgartirdi va global savdoni osonlashtirdi. Elektron tijorat platformalari tufayli kompaniyalar butun dunyo bo'ylab mijozlarga o'z mahsulot va xizmatlarini taklif qilishlari mumkin. Bundan tashqari, internet frilanserlar uchun ish imkoniyatlarini yaratdi va masofadan turib ishlash imkoniyatini beradi.

❖ Fan va ta'lim: Internet ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarni yaratdi. Onlayn ta'lim platformalari va resurslari tufayli odamlar o'zlari xohlagan fanlarni o'rganishlari va malakalarini oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, masofaviy

ta'lim imkoniyatlari talabalar va mutaxassislariga moslashuvchanlik va kirish qulayligini ta'minlaydi.

❖ Madaniy va ijtimoiy o'zaro ta'sir: Internet madaniy va ijtimoiy o'zaro ta'sirni kuchaytirdi va diversifikatsiya qildi. Har bir inson san'at, musiqa, filmlar va boshqa madaniy kontentga osongina kirishi va baham ko'rishi mumkin. Bundan tashqari, Internet odamlarni turli madaniyatlar bilan tanishtiradi va ularga global istiqbolga ega bo'lish imkonini beradi.

Biroq, internetning ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, uning ba'zi salbiy tomonlari ham bor, masalan, shaxsiy hayotga oid muammolar, axborot xavfsizligi muammolari, raqamli giyohvandlik va onlayn ta'qiblar. Shu sababli, internetning ta'sirini tushunish va ushbu texnologiyadan mas'uliyat bilan foydalanish har bir inson uchun judayam muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Hozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI asrda nafaqat ilm, fan balki butunjahon global internet tarmog'ining ham qay darajada

rivojlanishini tasavvur qila olmaymiz. Lekin shunga qaramasdan hozirgi kundagi ilm, fandagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda bir nechta misollarni keltirishimiz mumkin.

✓ Kelajakda internet yanada keng tarqalishi va qurilmalarning o'zaro bog'lanishi kutilmoqda. Narsalar Interneti (IoT) texnologiyasi har qanday qurilmani internetga ulashi mumkin, bu esa aqlli uylardan tortib sog'liqni saqlash qurilmalarigacha bo'lgan hamma narsada ko'proq ma'lumot almashish va avtomatlashtirish imkonini beradi.

✓ To'ldirilgan reallik va virtual reallik: Kelajakda to'ldirilgan reallik (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalari yanada kengroq va murakkab bo'lishi kutilmoqda. Ushbu texnologiyalar ta'limdan tortib o'yin-kulgigacha bo'lgan ko'plab sohalarda qo'llanilishi va internet tajribasini yanada interaktiv qilishi mumkin.

✓ 5G va tezkor internetga kirish: 5G texnologiyasining tarqalishi bilan internetga ulanish tezligi yanada oshishi va kechikishning pastroq bo'lishini ta'minlashi kutilmoqda. Bu tezroq ma'lumotlarni uzatish va kuchli ulanishlar

bilan birga yanada ilg'or xizmatlar va ilovalarga olib kelishi mumkin.

✓ Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish integratsiyasi: Kelajakda internetdagi kontent va xizmatlar sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish (ML) texnologiyalari bilan tobora kuchayib borishi kutilmoqda. Bu ko'proq shaxsiylashtirilgan tajribalar, avtomatik kontent tavsiyalari va yanada samarali operatsiyalarga olib kelishi mumkin.

✓ Raqamli qonun va maxfiylik standartlari: Kelajakda internet foydalanuvchilarining ma'lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi haqidagi xavotirlari yanada ortishi mumkin. Shu sababli, qat'iyroq qoidalar va standartlar o'rnatilishi va raqamli huquq va majburiyatlar haqida ko'proq xabardorlikni yaratish mumkin.

MUHOKAMA.

Bu bir nechta misollar shunchaki insoniyatning fikr mulohazalari asosida kelib chiqqan bashoratlar, lekin Internet kelajagi haqida aniqroq bashorat qilish uchun barcha texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy

va madaniy omillarni hisobga olish muhimdir.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Internet tarixi juda katta texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega.

Internet bizning dunyomizni yanada bog'langan joyga aylantirdi, axborotni yanada qulayroq qildi va global miqyosda yanada samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 8-sinf Informatika maktablar uchun darsligi;
2. Isajon Sulton (Internet adabiyoti 2013).
3. A. A. Abduqodirov, A. G'. Hayitov, R. R. Shodiyev «Axborot texnologiyalari» T. O'qituvchi – 2002 yil.
4. T.X.Holmatov, N.I.Tayloqov, U.A.Nazarov “Informatika va hisoblash texnikasi” T.2001-yil
5. A.Sattorov “Informatika va axborot texnologiyalari” Toshkent – 2002 yil.



**AYOLLAR MEXNAT MIGRATSIYASINING TARIXIY VA
NAZARIY ASOSLARI**

Rabiyev Bobomurod^(a) Ergashev Elyorbek Shodmonovich^(b)

^(a)Andijon davlat universiteti. "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti
doktoranti

^(b)Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti qoshidagi akademik litsey tarix fani
o'qituvchisi

ANONTATSIYA

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 04.04.2024
Qayta qabul : 9.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

***B.Rabiyev**
E.E.Ergashev



***Muallif bilan aloqa**
<https://orcid.org/0009-0001-2036-179X>

© Muallif. B.Rabiyev va boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti
Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Kishilik jamiyatida xar bir xodisa kelib chiqish tarixiga ega, jumladan ijtimoiy-iqtisodiy jaryonlar xam. YEr shari doim xarakatda bo'lgani kabi, insonlar xam qadim zamonlardan beri ov uchun, yangi yerlarni kashf qilish uchun xamda kundalik turmush tarzni yaxshilash uchun turli joylarga ko'chib yurishgan bu esa fanda migratsiya deb nomlandi. Makolada ayollar migratsiyasi va ayol uy xizmatchilari migratsiyasi mintaqalar bo'yicha o'rganilgan.

KALIT SO'ZLAR

Migratsiya, uy xo'jaligi ishlari migratsiyasi, BMT malumotlari, Osiyo mamlakatlari, Afrika davlatlari.

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЖЕНСКОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Аннотация: Каждое явление в человеческом обществе имеет историю возникновения, включая социально-экономические тенденции. Поскольку земля постоянно движется, с древних времен люди перемещались в разные места для охоты, открытия новых земель и улучшения своей повседневной жизни, и в науке это называется миграцией. В статье рассматривается миграция женщин и миграция женщин-домработниц по континентом.

Ключевые слова. Миграция, миграция домохозяйств, данные ООН, страны Азии, страны Африки.

HISTORICAL AND THEORETICAL FACTS OF FEMALE LABOR MIGRATION

Abstract: Every phenomenon in human society has a history of occurrence, including socio-economic trends. Since the earth is constantly moving, since ancient times people have moved to different places to hunting, discover new lands and improve their daily lives, and this is called migration in science. The article examines the migration of women and the migration of female housekeepers by region.

Keywords. Migration, household migration, UN data, Asian countries, African countries

KIRISH

Iqtisodiyotning xalqarolashuvi, va mamlakatlarning notekis rivojlanishi, dunyo, mehnat migratsiyasi misli

ko'rilmagan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan, hodisaga aylandi. So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida barqaror mehnat migratsiyasi yangi mehnat bozori va asosan muhojirlar bilan band bo'lgan ish turlarini taqsimlanishiga olib keldi.

Aholi migratsiyasi- bu inson hayotining barcha ijtimoiy-iqtisodiy jihatlariga ta'sir ko'rsatadigan global hodisa. Bu hududlarning iqtisodiy salohiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ekologik va atrof-muhitni yaxshilashga hissa qo'shishi mumkin.

Qoida tariqasida, migratsiya jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi, yangi mehnat bozorlari, to'ldirilmagan iqtisodiy bo'shliqlar va bandlikning yangi turlarining shakllanishi bilan bog'liq. Ko'pchilik nazarida migrant ishchi deganda erkak kishi ko'z oldimizga keladi ammo so'ngi paytlarda migrant ishchilar orasida ayollalar salmog'i ortib bormoqda, ayollarning mehnat migratsiyasiga jalb etilishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini xam mavjud bo'lib uni xam individual, ham ijtimoiy darajada ko'rib chiqilishi mumkin. Ko'pgina ayollar uchun mehnat migratsiyasi ijobiy jihatini olsak yangi tenglik dunyosiga eshik ochadi, bu yerda ular zulm va kamsitishlardan aziyat chekmaydilar. Shuningdek iqtisodiy erkinlikni taminlaydi, qabul qiluvchi mamlakatlarga kelsak, ishchi ayollarning mehnat faoliyati davlatlarga foyda keltirib ularning hayot sifatini tom ma'noda o'zgartiradi.

TADQIQOT METODLARI. ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro qonunlarga ko'ra inson huquqlari ta'minlashga qaratilgan bir qator muhim hujjatlari mavjud. Ulardan ba'zilari nafaqat fuqarolar va migrantlarga fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham tegishli. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tegishli hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil.

2. Barcha mehnat migrantlari va ularning oila azolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya 1990 yil.

3. Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya 1965 yil.

4. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya 1979 yil[1].

STATISTIK MA'LUMOTLAR VA ULARNING TAHLILI

Ayollar mehnat migratsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi xisoblanadi. BMT ning malumotlariga ko'ra 1940-yildan to xozirgacha ayollar migratsiya oqimi rivojlanib kelmokda. 1960- yilda xar yuz erkakga 47 ta ayol to'g'ri kelgan bo'lsa yil sayin ularni miqdori ortib borgan, 1990- yilda 48 ta, 2000- yilga kelib 49 taga oshgan.

2005- yilda ayol migrantlar umumiy migrantlar sonini deyarli yarmini tashkil etdi 49.6% foiz. Rivojlangan davlatlarda ishchilar orasida migrant ayollar ulushi ko'p bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 45.5% foiz, Fors

ko'rfazi davlatlarda esa mehnat muxojirlar sonini 29% foizini tashkil etadi[1].

Osiyoda ba'zi mamlakatlardan ayollarning migratsiyasi yerkaklar migratsiyasidan oshib ketdi. Aksariyat hollarda ayollar Sharqiy Osiyo, yaqin Sharq va boshqa mintaqalardagi qo'shni mamlakatlarga mustaqil ravishda ko'chib borishadi. Ayol mehnat muhojirlarini jalb qilishning asosiy markazlari G'arbiy Osiyoda, shuningdek Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida joylashgan. Ushbu ikkala mintaqada ham barcha xalqaro migrantlar orasida migrant ayollarning ulushi 1980- yildan boshlab tez o'sishni boshladi.

1990-yillarning o'rtalariga kelib xar yili taxminan 800 ming osiyolik ayollar yaqin sharqning rivojlangan mamlakatlariga uy ishlariga yordamchi sifatida ishlash uchun ko'chib kelishgan[2].

2- jaxon urushidan keyin 1950-yillardan boshlab shimoliy Amerika ko'chib kelganlar orasida ayollar salmog'i yuqori bo'lgan. Ularning aksariyati yevropalik malakali mutaxassislar bo'lgan va bu tarixda mashxur "oqillar ko'chishi" deb nomlangan[3].

Afrikaning iqlim sharoiti kasalliklar unumdor yerlarning kamligi ochlik tabiiy sharoit va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra mintaqadan ayol mehnat muxojirlari ko'payishiga sabab bo'ldi. 2005-yilda 17 mln ayol migrant orasida 47 % foizi afrikalik ayol migrantlar bo'lgan. 1960-yilda esa 42% foiz bu mehnat muxojirlari

asosan YEvropa va Shimoliy Amerika xududlarida mexnat qilishgan.[4]

Tarixdan malumki YEvropaning bir qancha rivojlangan davlatlari jumladan Ispaniya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Fransiya Afrika materigida o'z mustamlakalarini barpo etgan. Xozirga qitada mustaqil davlatlar paydo bo'lgan bo'lsada YEvropa tillari saqlanib qolgan, bu esa ayollarning YEvropa davlatlariga erkin migratsiya qilish imkonini beradi. Misol uchun Fransiyada Senegal shaxarlarida taxsil olgan xamshiralar soni ortib bormoqda. Shuningdek Nigeriyadan Saudiya Arabistonga, Gana, Janubiy Afrika va Zimbabedan Kanada, Angliya Aqshga faol ravishda ko'chib bormoqda.

Ayollar migratsiyasini xududlar kesimida taxlil kilinganda, tarixdan arab mintaqalaridan ishchi ayollar boshka joydan xududlardan kelgan muxojirlardan ko'ra kamroq bo'lgan. Bunga asosiy sabab ijtimoiy-diniy meyorlarni saqlanib kolganligidadir. Ammo xozirga kelib diniy erkinlik (tolerantlik) xalol oziq-ovqatlarning mavjudligi tufayli arab davlatlaridan xam ayollar migratsiya uchun xorijiy davlatlarga chiqmoqda.

Uy ishi ayol ishchilarning xalqaro migratsiyasini rag'batlantiruvchi eng yirik tarmoqlardan biridir. Bu ko'proq Shimoliy Amerika, G'arbiy YEvropa va Sharqiy Osiyoda xududlarda keng tarqalgan. Ayollar ishchi kuchi sifatida uy ishlarida yordam berishadi shuningdek qariyalar, bolalar va kasallarga g'amxo'rlik qilish xam shular jumlasidandir. Bu jarayonlarning barchasi dastlab Osiyo, Lotin Amerikasi xamda Karib dengizidan, boshlangan bo'lsa, xozirda esa Afrikadan ayollarning katta oqimini migrant sifatida yetakchilik qilmoqda.

Chyet elga kelganlarida, ular har doim ham mamlakatni tark etish paytida ularga taklif qilingan faoliyat bilan shug'ullanmaydilar.

Xorijda ayollarini ish bilan ta'minlash turlarining quyidagicha tasnifini berish mumkin:

➤ davlat xizmatlari (mehmonxonalar, klinikalar, restoranlar, sotuvchilar, tozalovchilar va boshqa oddiy darajadagi ishchilar.);

➤ Uy xizmatlari (enagalar, oshpazlar, kasalga qarovchi hamshiralar, uy xizmatkori, va hokazo.);

➤ Ko'ngilochar joylar (restoranlarda raqqosalar, shou dasturlar ishtirokchilari va boshqalar.);

➤ Tibbiy va sog'lomlashtirish xizmatlari (massaj, sauna va boshqalar.);

➤ Kasbiy bandlik (gid xizmatlari, ta'lim, sog'liqni saqlash);

➤ Davlat va madaniy xizmatlar sektori (tarjimonlar, volontorlik, turizm va boshqalar.);

➤ Sanoat ishlab chiqarish (tikuvchilar, mayda ishlab chikarishlar va boshqalar.)[5].

Yukoridagi ishlar ayollarning uyga qaytishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ish joyidagi shart-sharoitlari ularning chet elda ishlash shartlariga va muvaffaqiyatiga bog'liq.

Mexnat bozorida orasida Osiyolik ayollarga qiziqish katta. Ko'pincha Osiyolik ayollar qarindoshlar, do'stlar va oilaviy rishtalar orqali

amalga oshiriladigan migratsiyaning imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlarni boshqa manbalardan ko'ra ishonchliroq xisoblashadi. Ko'pchilik chet elda qarindoshlari oldiga borib, u yerda qolish afzal ko'rishadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Shri-Lankada ayollarning 32% tanish-bilishlar va qarindoshlik aloqalar orqali migratsiya qilishadi, 16,5% esa turmush o'rtog'i orqali xorijga ishlashga borishadi, qolganlari esa o'z taqdirini xususiy agentliklarga ishonib topshirishadi[6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tashkilotlarning xisobotiga ko'ra 2030-yilga kelib 575 million kishi qiyin sharoitda yashashi taxmin qilinmoqda. Xozirgi kunda ayollarning 10,3 foizi o'ta qashshoqlikda yashamoqda, kunlik daromadi 2.15 dollarga teng. Shu sababli ishsizlik yuqori bo'lgan mintakalarda ayollarni tegishli soxalarda o'qitib xorijga ishga yuborish maksadga muvofiqdir[7].

O'zbekiston tashqi ishlar migratsiya agentligi tomonidan janubiy Koreya

respublikasiga 2.5 ming va Germaniya federatsiyasiga xamda Turkiya davlatiga xamshira diplomiga ega bo'lgan ayollarni uy sharoitida qariyalarni parvarishlash uchun ish o'rinlari bo'yicha xujjatlar imzolandi[8].

Shu bilan birga, migrant ayollar odam savdosi qurboni bo'lib zamonaviy qullik shakllaridan tortib, maishiy ekspluatatsiyaga qadar turli xil xavf-xatarlarga duchor bo'lmoqdalar, bazan uy ishchi xizmatchilarga yetkazilgan zarar odamlar uchun qonuniy migratsiya to'liq ishlamayotganidan darak beradi. Odam savdosi nafaqat bitta ishchiga shuningdek, milliy xavfsizlik va barqarorlikka putur yetkazadi. Mehnat migratsiyasi xavfini kamaytirish zarurati mavjud, buning uchun muhojirlarni himoya qilishga qaratilgan strategiya va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rabiye B.B. O'zbekistonlik ayollar migratsiyasi.(Rossiya federatsiyasi misolida) Economy and Innovation ISSN: 2545-0573 Volume: 34 | 2023
2. <https://news.un.org/ru/news/topic/migrants-and-refugees>
3. Migration and Gender // Asia Research Institute. Migration Cluster. Rejim dostupa: <http://www.ari.nus.edu.sg/articleview.asp?Id=188>
4. https://www.researchgate.net/publication/290779560_The_history_of_brainain
5. Paola Degani Front.Hum.Dyn.,17May2022Sec.Dynamicsoft Migration and Im)Mobility Volume4-2022 | <https://doi.org/10.3389/fhumd.2022.818351>.
6. Mapping vulnerability amid mixed migration flows. The reality of severe labor exploitation from a human rights perspective. <https://doi.org/10.3389/fhumd.2022.1073606>.

7. <https://www.referat911.ru/Ekonomicheskaya-geografiya/trudovaya-migraciya-zhenshhin/54679-1474078-place2.html>
8. Berg P.A., Kalleberg L., Appelbaum E. Balancing work and family: the role of high-commitment environments // *Industrial Relations*. 2003. № 42(2). P. 168–187.
9. <https://xorijsdaish.uz/>
10. Cealey-Harrison W., Hood-Williams J. More varieties than Heinz: Social categories and sociality in Humphries, Hammersley and beyond // *Sociological Research Online*. 1998. Vol. 3. № 1. URL: <http://www.socresonline.org.uk/3/1/8.html>.
11. The Sustainable Development Goals Report 2023: Special Edition – Towards a Rescue Plan for People and Planet (United Nations publication, 2023).
12. Rameen Siddiqui, “An intersectional approach to poverty and inequality”, *Modern Diplomacy*, 20 April 2023.
13. Ginette Azcona and Antra Bhatt, “Inequality, gender, and sustainable development: measuring feminist progress”, *Gender and Development*, vol. 28, No. 2 (2020).



**SELECTION OF ALTERNATIVES, EXPERT
ASSESSMENT AND BIDDING CRITERIA**

**Mirzaakhmedova Aziza Xusnitdinovna ^(a), Akbarova Nigora
Ruxiddinovna^(a)**

^(a)Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 02.04.2024
Qayta qabul : 15.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

A.H.Mirzaakhmedova

N.R.Akbarova



Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0000-6651-2429>



mu1234@gmail.com

**© Muallif. A.H.Mirzaakhmedova
va boshqalar**
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

ABSTRACT:

An approach to predicting the number of scientific personnel is proposed based on the regression model and expert assessment methods that give an opportunity to take into account the intensity of the development of the scientific and technical potential of the Republic. It is necessary to process and analyze examination data, draw up priority methods of future probabilities of Science and technology based on expert assessment, as well as evaluate them and prepare proposals.

KEY WORDS:

probability distribution, dynamics, decision making, criteria, expert assessment, multifactorial, alternatives, collection, highly qualified personnel, model, acceptable loading.

INTRODUCTION.

Currently, the problems of clarity and decision-making, the activities of the institution are also of great importance. The global efficiency criterion that allows to evaluate this or that solution of a given problem is not clearly known. Serious difficulties in forming a general factor of efficiency arise not only due to the multifactorial nature, but also due to the different quality and variety of economic and social factors, the dynamics and consequences of the included measures. Among the tasks that arise, especially in the decision-making process, to be precise, it is more convenient to apply certain rules of decision-making (decision-making criteria) that establish an alternative relationship between individual alternatives from the set of available alternatives and the application of utility theory in a certain sense. [1,2].

METHODS.

Wald criterion. Alternatives are evaluated from the pessimistic data of k-possible states. Comparing two alternatives a_i, a_j with certain utility functions u_{ik}, u_{jk} , the Wald criterion for all cases is written as follows:

$$a_i R a_j, \text{ if } \min_k u_{ik} \geq \min_k u_{jk}, \quad (1.1)$$

where R is a binary relation of weak priority ("not worse than").

Another criterion that is opposite to the Hurwitz criterion (1.1) and is more "optimistic" is the maximax criterion:

$$a_i R a_j, \text{ if } \max_k u_{ik} \geq \max_k u_{jk}, \quad (1.2)$$

To some extent, the Hurwitz criterion is a generalization of (1.1) and (1.2):

$$a_i R a_j, \text{ if } \alpha \min_k u_{ik} + (1 - \alpha) \max_k u_{ik} \geq \alpha \min_k u_{jk} + (1 - \alpha) \max_k u_{jk}, 0 \leq \alpha \leq 1. \quad (1.3)$$

At $\alpha=1$ (1.3) Hurwitz criterion (1.1) goes to $\alpha=0$ – (1.2).

The coefficient α is selected depending on the nature of the problem. It "adjusts" to the "preparation variable", the risk, by selecting certain (1.3) criteria. The simplest problems that allow the optimal choice of α are considered. But, in general, there is no unified state.

The Savidge criterion represents the "regret" between the true and the more efficient (h-choice) choice:

$$a_j R a_i, \text{ if } \min_k (u_{ik} - \max_h u_{hk}) \geq \min_k (u_{jk} - \max_h u_{hk}). \quad (1.4)$$

The expressions in parentheses in (1.4) are the sequence limits of the false choice. An acceptable solution is found under the condition of minimum "regret".

Laplace and Bayes criterion. In the Laplace criterion, all possible states of the alternatives are equally likely (state of complete certainty):

$$a_j R a_j, \text{ if } \sum_{k=1}^n u_{ik} \geq \sum_{k=1}^n u_{jk}, \quad (1.5)$$

The Bayes criterion is a generalization of (1.5) and is characteristic of decision-making situations involving risk in which the distribution of probabilities for different states (stochastic state) is known. In this case, the following formula is appropriate:

$$a_i R a_j, \text{ if } \sum_{k=1}^n p_k u_{ik} \geq \sum_{k=1}^n p_k u_{jk}, \quad (1.6)$$

where p_k is the probability of occurrence of state k .

Thus, according to the criterion (1.6), the alternative with the maximum mathematical expectation is chosen.

Hodges-Lehman criterion. This criterion, similar to the Hurwitz criterion (1.3), constitutes a union of the two above-mentioned (1.5), (1.1), precisely speaking:

$$a_i R a_j, \text{ if } \alpha \sum_{k=1}^n p_k u_{ik} + (1 - \alpha) \min_k u_{ik} \geq \alpha \sum_{k=1}^n p_k u_{jk} + (1 - \alpha) \min_k u_{jk}, \quad (1.7)$$

where $0 \leq \alpha \leq 1$.

Criterion (1.7) is used when there is insufficient information about the law of probability distribution, but there is information about the frequency of occurrence of a certain state depending on the location of the coefficient α .

Studying the various factors of decision-making problems directly leads to its deeper understanding and solution. In addition, the rational use of formal and informal methods, the use of

human skills and emotions, the "good" relationship between the employees of the organization, external experts and researchers - all this is the study and analysis of the process of identifying decision-making problems in organizational systems, the perspective of employees' activities. creates conditions for increasing plans and efficiency. [3]. The development of various specializations in the fields of science "Assessment of the relative importance" for different questions can have indicators that characterize the following:

- the general opinion of a group of experts on the importance of the development of various specialties;
- the level of agreement of experts;
- statistical indicators of the consensus index of expert opinion;
- the experts' generalized opinions on each question posed to them.

A rational choice of alternatives. It shows the models of 3 methodological solutions to the problem of choosing alternatives in an uncertain environment [4].

The first model assumes the availability of current information in the form of non-deterministic relations (a.n.m) of $\mu_R(x, y)$, preferences given in a set of U alternatives. The rational choice of $x^* = \arg \max_y \mu_{x^{H.\Theta}}(x, y)$ alternatives takes place in the special class of X^{ND} - Orlovsky

non-priority alternatives, whose relevance function (t.f)

$$\mu_{x^{uu}}(x) = 1 - \max_y \mu_{R_s}(x, y), \mu_{R_s}(x, y) = \max(0, \mu_R(x, y) - \mu_{R_s}(y, x)).$$

Within the framework of this model, a method of solving the issues of choosing educational methodological manuals is provided.

In the second model, the relative weights of R_i a.n.m are given by the corresponding coefficients λ_i . This allows to select alternatives

$$\mu_{Q_2}(x, y) = \sum_{i=1}^m \lambda_i \mu_{R_i}(x, y); Q_1 = R_1 \Lambda \dots \Lambda R_m^{\lambda_m}; X^{HI} = Q_1^{HI} \wedge Q_2^{HI}.$$

In the third model, the information about the relative weights of the factors is non-deterministic and is defined in the set of factors R_3 a.H.M $\pi = \{\pi_i\}$. Decision-making takes place in two stages. At the first stage, the resulting R_p a.n.ms are constructed in the following form [5,6].

$$\mu_{R_p}(x_x, x_l) = \sup_{\pi_i, \pi_j \in \pi} \min(\mu_{R_i}(x_k), \mu_{R_j}(x_l), \mu_{R_3}(\pi_i, \pi_j)).$$

In the second step, it is the selection of alternatives when there is only one R_p a.n.m:

$$x^* = \arg \max_x \mu_{x^{H\Delta}}(x) = \min(\mu_{R_p^{H\Delta}}(x), \mu_{R_p}(x, x)).$$

RESULTS.

The given model is also used in accepting the issue of choosing alternatives characterized by a single aggregate indicator, taking into account the opinion of several experts. the number of organizations conducting scientific research and production;

1. Expenses for scientific and technical work by type of organizations;
2. Provision by the fund;

from X^{ND} based on the sum of current relations in the form of the sum of t.f.:

$$Q_1(1,2) = \min(1; 1; 1; 1; 1) = 0$$

etc. As a result, we find the following.

Step 2. We find Q_1^{ND}

Step 2.1. The inverse matrix Q_1^{-1} is formed

Step 2.2

Calculate Q_1^0 :

3. Development of scientific and technical products;

Non-fixed information R_1, R_2, R_3, R_4, R_5 and R .

Step 1. Finding the elements of the matrix Q_1 :

$$Q_1(1,1) = \min(1; 1; 1; 1; 1) = 1$$

$$\rho Q_1^0(1,1) = \max(0, 1 - 1) = \max(0, 0) = 0$$

$$\rho Q_1^0(1,2) = \max(0, 0 - 0) = \max(0, 0) = 0$$

etc. As a result, we get the following information.

Step 2.3. We find Q_1^{ND} :

$$\rho Q_1^{HI}(x_1) = 1 - \max(0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0) = 1;$$

$$\rho Q_1^{HI}(x_2) = 1 - \max(0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0) = 1;$$

$$\rho Q_1^{HI}(x_3) = 1 - \max(0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0;0,40;0;0;0,98) = 0,02$$

etc. ie

$$\begin{pmatrix} X_1 & X_2 & X_3 & X_4 & X_5 & X_6 & X_7 & X_8 & X_9 & X_{10} & X_{11} & X_{12} & X_{13} & X_{14} \\ 1: & 1: & 0,02: & 0,01: & 0,01: & 0,43: & 0,1: & 0,11: & 0,01: & 0,07: & 0,11: & 0,01: & 0,02: & 1: \end{pmatrix}$$

DISCUSSION.

1. Thus, we determined that it is possible to choose the best environment from the 14 proposed regions by sorting through all the regions.

2. The concept of "resource-competency matching" is a key structural element of the entire future logic of seeing the problem-oriented assessment of the demand for highly skilled personnel. The purpose of developing the methodological apparatus is to determine the object and problem-oriented assessment tool. The indicators used by highly qualified employees and their measurement methods, the goals of scientific and technical problems are defined, and a model that processes the evaluation results is developed. In this approach, the main task is to study whether this or that - set of scientific goals corresponds to this or that - set of highly qualified personnel.

3. A tool for problem-based assessment is the measurement of given adaptation. Measurements of this type are carried out within the limits of processes formed by the use of mathematical apparatus and on the basis of heuristic processes.

CONCLUSION.

1. An approach to predicting the number of scientific staff is proposed based on the regression model and expert assessment methods that allow taking into account the speed of the development of the scientific and technical potential of the republic.

2. A simulation system was developed to systematically study the demand for highly qualified personnel, which helps to implement a targeted programmatic approach in the Republic, to optimally load the Republic ITI and to identify specialties that can be trained only by central ITIs.

3. A criterion for assessing the demand for highly qualified personnel has been developed and a selection of available factors (criteria) has been made.

4. Expert evaluation methods and decision-making criteria have been developed in systematic studies of the demand for highly qualified personnel.

Further prospects in the study.

The development of these methods, in contrast to previous published work, is based on a series of interconnected problems, i.e., forecasting and evaluation of optimal R&D activities, decision making, simulation modeling, software tools, mathematical models, and modern information technology methods in the context of the market mechanism. led to the solution by grading methods. In particular, despite its simplicity, the information supply of a systematic study of the requirements for highly qualified personnel has advantages in a number of cases. It is these features that have ensured their widespread use in solving practical problems in the management and processing of information on systematic analysis, training of personnel.

Taking into account the new dynamics in the study of strategic priorities in science naturally leads to a revision of the priorities of science. Achieving the advanced aspects of the science requires that the staff potential of the science comply with modern requirements, conducting systematic research

on the study of the demand for highly qualified personnel of the science. The training of highly qualified personnel largely determines the future potential of our science. That is why solving the problems of their training is one of the main issues in the field of science management.

Developed models and algorithms for the systematic application of the demand for highly qualified personnel were achieved on the computer. The results of the calculations showed

the workability and efficiency of the developed simulation system. The developed methodological cases, models, algorithms and software can be used in the creation of automated management systems for the training of highly qualified personnel in other republics.

Reference List

1. Beshelev S.D., Gurvich F.G. Mathematical-static methods of expert evaluations. -M.: Statistics. (1980). -314 p.
2. Evlanov L.G., Kutuzov V.A. Expert evaluations in management. -M.: Economics. (1978).
3. Obidov A.O., Mamatkhodjaeva T.N. Determination of priority scientific specialties by the method of cluster analysis on the basis of promising directions of R&D // Issues of modelling and informatisation of the economy. -Tashkent, (1991). - Issue. 2. - p.115-122.
4. Orlovskiy S.A. Problems of decision-making at fuzzy initial information. -M.: Science. (1981). - 208 p.
5. Mirzarahmedova A.H. Modelling of scientific and technical potential on the basis of information technologies. //VI All-Russian Conference of Young Scientists on Mathematical Modelling and Information Technologies (with participation of foreign scientists): 2005 – Kemerovo.
6. Mirzarahmedova A.H. Development of information and dialogue system for assessing the need for highly qualified personnel. // Vestnik TashGTU. 2005.№3. - p.25-28.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION O'QITISH USULI

Zoxidova Gulchexra Ergashboy Qizi

**Andijon viloyati Andijon tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi
5-hudud 2-uchastka kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodim**

ANNOTATSIYA

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 13.04.2024
Qayta qabul : 23.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

G.E.Zoxidova



Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



gulchexrazoxidova96@mail.com

© **Muallif. G.E.Zoxidova**

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati haqida fikr yuritiladi va dars jarayonida turli xil o'yinlardan foydalanishning muhim jihatlari boshlang'ich sinf o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishiga xizmat qilishi asoslangan.

Boshlang'ich maktablarda ishning tarkibiy elementi sifatida sinf o'qituvchisi o'qitish metodi tajribasi bilan yaxshi muvozanatli munosabatda bo'ladi. Boshlang'ich maktablarda o'qitishning sifat standartlari, bir tomondan, xatti-harakatlarga ta'sir qiluvchi qoidalar va buzilishlarning oldini olish bilan samarali sinfni boshqarishni, xatolarni to'g'rilash orqali o'rganish uchun qulay muhitni va kognitiv faollikni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, bu ham professional to'g'rilik bilan tuzilish va aniqlikni talab qiladi.

KALIT SO'ZLAR

Innovatsion texnologiyalar, tahlil, raqobat, tadqiqot, o'yin, texnologiyasi, muvaffaqiyat, maktab

KIRISH.

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi maktab davrining dastlabki sinflaridan boshlanib yaxshi samara berishini barchamiz yaxshi bilamiz. Ya'ni, boshlang'ich sinf o'z navbatida hayotning va ta'limning dastlabki poydevori sifatida tushuniladi. Ular o'rgangan manbani "tahlil qilish" va "taqqoslash" xususiyatlarini ham mustaqil bajarishadi. Shularni e'tiborga olib, boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda.

Boshlang'ich maktablar xodimlari o'quvchilar jamoasining turli xilligiga mos ravishda yuqori sifatli o'qitishni ta'minlash muammosiga duch kelishadi, bu sinfni samarali boshqarish, qo'llab-quvvatlovchi o'qitish muhiti va ko'p variantli kognitiv faollik bilan tavsiflanadi. Har bir dars jarayonida mashg'ulotni qiziqarli va mazmunli tashkil eta olish, o'quvchilar diqqatini jamlay olishda AKTdan foydalanish samarali natija bermoqda. O'quvchilarda uzluksiz o'z ustida mustaqil ishlash imkoniyati tug'ildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Boshlang'ich maktablarda ishning tarkibiy elementi sifatida sinf o'qituvchisi o'qitish metodi tajribasi bilan yaxshi muvozanatli munosabatda bo'ladi. Boshlang'ich maktablarda o'qitishning sifat standartlari, bir tomondan, xatti-harakatlarga ta'sir qiluvchi qoidalar va buzilishlarning oldini olish bilan samarali sinfni boshqarishni, xatolarni to'g'rilash orqali o'rganish uchun qulay muhitni va kognitiv faollikni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, bu ham professional to'g'rilik bilan tuzilish va aniqlikni talab qiladi. O'qituvchilar jamoasi o'z o'quvchilarini darslarni rejalashtirish, o'tkazish va tahlil qilishda ularning yoshiga mos keladigan tarzda jalb qiladi va ularning tajribasi, savollari, bilimlari va malakalarini darsning boshlang'ich vazifasiga aylantiradi. Shuningdek, ularga mavzuga yo'naltirilgan tashabbuslar va fanlararo loyihalar orqali maktab hayotini tashkil etishda ishtirok etishga imkoniyatlar ham beriladi.

Darslarda bunday ishtirok etish o'z o'quv jarayoni uchun mas'uliyatni va ishlash motivatsiyasini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA.

Bundan tashqari, boshlang'ich maktab o'quvchilarining fikrlash va tajribalarini o'ziga xos tarzda tahlil qilish uchun, yaxlit yondashuv boshlang'ich maktablarda asosiy o'qitish tamoyili hisoblanadi. Har qanday o'qituvchi uchun eng katta muammo - bu har bir talabaning e'tiborini jalb qilish va doimiy taassurot qoldirish uchun g'oyalarni etarlicha samarali etkazishdir. O'qituvchi sifatida ushbu muammoni samarali hal qilish uchun innovatsion g'oyalarni amalga oshirish kerak, bu esa o'quvchilar uchun sinf tajribasini yanada yoqimli qiladi. Shunday qilib, quyida bir nechta innovatsion g'oyalar bizning o'qitish usullarimiz va darslarimizni yanada qiziqarliroq qiladi.

Ya'ni ijodkorlikni rag'batlantirish uchun vositalardan foydalanish Yosh ongni hayajonga soladigan va ularning qiziqishini uyg'otadigan o'yinlari yoki vizual mashqlar shakllarini qo'shish muhim ahamiyatga

ega. Bu yondashuv orqali har bir boshlang'ich sinf o'quvchising ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va ijodiy hissalarini rag'batlantirish uchun sinovidan o'tgan usuldir.

MUHOKAMA.

Ijodkorlik jihatlarini barcha fanlarga, xoh matematika, xoh ilm-fan bo'lsin, ularning ijodiy g'oyalarini rivojlantirish yo'llarini o'ylab ko'rishimiz kerak. Mashg'ulotlar davomida darsliklarni to'ldirish uchun audio-vizual materiallarni qo'shishimiz kerak. Bu modellar, filmlarga sayohatlar, filmlar, rasmlar, ma'lumot grafiklari yoki boshqa aqliy xaritalash va miya xaritasi vositalari bo'lishi mumkin. Bunday vositalar ularning tasavvurini rivojlantirishga va o'sishiga yordam beradi. Ushbu usullar nafaqat tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, balki tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, biz ba'zi og'zaki tarix materiallarini olishimiz, jonli onlayn munozaralar o'tkazishimiz yoki ommaviy ma'ruzalarni tinglashimiz mumkin.

Bizning ko'rsatmalarimizga haqiqiy dunyo tajribasini kiritish o'qitish daqiqalarini yangilaydi va sinfdagi o'rganishni boyitadi. Haqiqiy hayotiy vaziyatlarni bog'lash va ko'rsatish materialni tushunish va o'rganishni osonlashtiradi. Bu ularning qiziqishini uyg'otadi va bolalarni hayajonlantiradi va jalb qiladi. Ba'zi darslar sinfdan tashqarida o'qitilganda yaxshiroq o'rganiladi. Darslarga mos keladigan sayohatlarni tashkil qilish yoki shunchaki o'quvchilarni sinfdan tashqarida sayrga olib boorish ham yaxshi samara beradi.

XULOSA.

Mavzuga doir amaliy o'yinlar o'ynash orqali o'qitish bolalarni o'zlarining konfor zonasidan chiqishga va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning ajoyib usuli hisoblanadi. Bu usul, ayniqsa, ingliz

tili, matematika yoki hozirgi voqealarni o'rgatayotganda foydali bo'ladi. Bu usul orqali o'rgatish bolalarni o'zlarining konfor zonasidan chiqishga va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishning ajoyib usuli hisoblanadi. Yaxshi bezatilgan, qiziqarli va qiziqarli bo'lgan sinf muhiti o'quvchining ongini rag'batlantirishga yordam beradi va yaxshiroq fikrlash va o'rganishga yordam beradi. Bunday ijodiy va rag'batlantiruvchi muhit ularni o'rganishga yordam beradi va mavzuni o'rganishga undaydi. Bolalarni, ayniqsa yoshlarni kun bo'yi o'tirib, o'rganishni kutish mumkin emas. Bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhit siz uchun ham foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. T: G'.G'ulom 2013
2. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar T.G'afforova T2011.
3. Ta'limda innovatsion texnologiyalar T:"Ist'edod"2009 Shodmonova Sh.S, Mirsagatova N.S, Ibragimova G.N, Mirsolieva M.T
4. Ta'lim, fan va innovatsiya T-2017 R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova, R.Ishmuhammedov



YOSHLARDA MILLIY MANFAAT TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Zoxidova Gulchexra Ergashboy Qizi

Andijon viloyati Andijon tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi
5-hudud 2-uchastka kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodim

ANNOTATSIYA

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 13.04.2024
Qayta qabul : 23.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

G.E.Zoxidova



Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



gulchexrazoxidova96@mail.com

© Muallif. G.E.Zoxidova

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Tabiiyki, bu vaziyatning o'zi o'zaro ijtimoiy-siyosiy munosabatga kirishishga majbur bo'lganlar o'rtasida tushunmovchiliklar, hatto besamar qarama-qarshiliklarga sababchi bo'ladi. Xullas, hozircha shunday – zikr etilayotgan muammo doirasida insoniyat, jahon hamjamiyati birorta bir «keskin burilish» sari borgan emas. Biroq bu – muammoning bir jihati. Shunga qaramasdan, sohaga oid dunyodagi ko'plab mamlakatlarda chop etilgan nashrlar «milliy manfaatlar» tushunchasi xususida bir muncha erkin fikr yuritish imkonini yaratadi.

KALIT SO`ZLAR

Milliy manfaatlar, jamiyat manfaatlari, individ, millat, demokratik, etnik, ijtimoiy, stixiyali, sotsium, mintaqaviy jarayonlar, madaniy-axloqiy.

KIRISH.

Ijtimoiy tajriba, sotsiumlararo, davlatlararo munosabatlar tahlili, qolaversa ijtimoiy-gumanitar soha vakillarining fikr va mulohazalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, inson va turli darajadagi ijtimoiy uyushmalar hayot faoliyati va barqarorligi ustuvor darajada milliy manfaatlarni ta'minlashga borib taqalishiga yana bir bor amin bo'lamiz. Biroq uning ma'no-mazmuniga doir ko'plab fikrlar, aniqlashlar mavjudki, bu bir tomondan, muammoning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati nechog'lik muhimligidan guvohlik bersa, ikkinchi tomondan – uning ijtimoiy reallik, konkret hodisa sifatida ko'p qirrali, murakkab ekanligi sabablidir. Bundan tashqari, milliy manfaatlarni qator ob'yektiv hamda sub'yektiv sabablarga ko'ra, turli ijtimoiy-siyosiy umumlashmalar, har bir sub'yekt o'ziga xos va mos talqin qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tabiiyki, bu vaziyatning o'zi o'zaro ijtimoiy-siyosiy munosabatga kirishishga majbur bo'lganlar o'rtasida tushunmovchiliklar, hatto besamar qarama-

qarshiliklarga sababchi bo'ladi. Xullas, hozircha shunday – zikr etilayotgan muammo doirasida insoniyat, jahon hamjamiyati birorta bir «keskin burilish» sari borgan emas. Biroq bu – muammoning bir jihati. Shunga qaramasdan, sohaga oid dunyodagi ko'plab mamlakatlarda chop etilgan nashrlar «milliy manfaatlar» tushunchasi xususida bir muncha erkin fikr yuritish imkonini yaratadi. Jumladan, Ozarbayjonlik olim Ali Hasanov ta'kidlashicha, «milliy manfaat – umuminsoniy manfaatlar tizimining (milliy, diniy, ijtimoiy, sinfiy va boshqa turdagi manfaatlar) tarkibiy qismi sifatida millat-davlat tomonidan anglab olingan, tashqi dunyoning mavjud talablariga muvofiq sobitqadamlik bilan amalga oshiriladigan maqsadlardan iboratdir. Milliy manfaatlar davlat manfaatlari bilan aynan va barcha jihatdan o'xshashdir». Bizningcha, bunday paytda bir-biriga yaqin, o'zaro bog'liq, ammo ikki xil ijtimoiy omil – bir tomondan «manfaatlar» va ikkinchi tomondan «milliy manfaatlar»ga oid

tushunchalar mohiyatini idrok etish muhim. «Manfaatlar» tushunchasiga keladigan bo'lsak, u anchayin keng qamrovliligi bois, uni qandaydir bir maxrajga tushirish murakkab bo'lib, har bir individ, fuqaro intilishlari hamda maqsadidan to sotsium, jamiyat manfaatlarigacha bo'lgan ulkan miqyosni qamrab oladi. Professor B.Iminov ta'kidlaganidek: «Manfaatlar ijtimoiyot in'ikosi sifatida qudratli kuch bo'lib, ularni anglamaslik, ular bilan hisoblashmaslik o'nglab bo'lmaydigan xatoliklarni tug'diradi.

METODOLOGIYA.

Manfaatlar o'rganilib, tartibga solinib boshqarilishining muammoviy dolzarbligi shu o'rinda yanada yaqqol seziladi». Agar, «milliy manfaatlar» kategoriyasini suveren davlatga nisbatan oladigan bo'lsak, uning sotsium, ya'ni ko'p qirrali jamiyat manfaatlarining bir bo'lagi, zarur bo'lsa uni ifodalovchi asosiy ko'rinishi deyish mumkin. Zero Konstitutsiyamizning 2 moddasida «Davlat xalq irodasini ifoda etib uning manfaatlariga xizmat qiladi», deb

ta'kidlangan. Sotsium va jamiyatning har bir a'zosi manfaatlarining voqelikka aylanishi uchun ustuvor darajada fuqarolarning aksariyat qismi tomonidan o'z davlati milliy manfaatlarini chuqur anglab yetilishiga bog'liq. Shuning barobarida milliy manfaatlar ijtimoiy voqelik sifatida millat tomonidan tegishli darajada anglanishi natijasida uning ta'sirchan ma'naviy omilga aylanishi tabiiy. Negaki insoniyat rivojining bugungi bosqichida, millatning aynan shu ma'naviy qudrati taraqqiyotning ustuvor omiliga aylanmoqda. Biroq bu jamiyat moddiy salohiyatini inkor etmasligini, jamiyat va tafakkurdagi chuqur o'zgarishlar bois bugungi kunga kelib, ma'naviy qudrat alohida nufuz kasb etilishi bilan bog'liq jihat ko'proq milliy manfaatlar kontekstida yaqqolroq ko'rinishini anglatadi. «O'zbekistonda milliy manfaatlarni himoya qilishning milliy modelining demokratik-gumanistik mohiyati, kishilarning kundalik hayotiy muammolarini hal qilish, ularning aqlu idrokini, bilimni, amaliyotini aniq maqsadlarga, vazifalarga

yo'naltirilgan manfaatlar motivlarini konkretlashtiradi. Zero, ijtimoiy taraqqiyot modellari bilan manfaat fenomeni o'rtasidagi dialektik bog'liqlik – jamiyatda qaror topgan adolat, tenglik, erkinlik kabi demokratik-gumanistik qadriyatlarda aks etadi va manfaatlarni reglamentlashtiruvchi huquqiy-qonuniy me'yorlarga, ma'na-viy-axloqiy normalarga asoslanadi».

MUHOKAMA.

Jamiyat manfaati shaxsiy va etnik manfaatlar doirasidan chiqib, ushbu jamiyatda yashovchi e'tiqodidan qat'i nazar barcha millat va elatlar manfaatlarini ifodalaydi. Jamiyat va sotsium tushunchalari ba'zan bir tushunchani ifodalovchi so'z sifatida talqin qilish holatlari ham ko'zga tashlanadi. Ular orasida umumiylik bo'lsada, sotsium jamiyatdan madaniy-axloqiy qirralarni ko'proq o'ziga singdirganligi bilan ajralib turadi. «...sotsiumda jamiyatning o'zga bo'laklaridan farqli ravishda ijtimoiy munosabatlar barqaror mohiyat kasb etib, oldi-berdi, aloqa, muoshirat – madaniy asoslarga qurilgan bo'ladi». Shu bois, bugungi madaniylashgan jamiyatlar

sharoitida biz tadqiqotda sotsium atamasini qo'llashni lozim deb o'yladik. Bunda «sotsium manfaatlari» ko'lami, parametrlari xususida so'z yuritar ekanmiz, uning «milliy manfaatlar tizimiga» munosabati, aniqrog'i, milliy manfaatlarni «ajratib olish», «artikulyatsiyalash», «g'alvirdan o'tkazish» muammosiga duch kelishimiz tayin. Bu yerda har doimgidek, bir tomondan – sotsiumga jamiyatga xos bo'lgan intilishlar, mo'ljallar hamda ustuvorliklarning va boshqa tomondan esa, davlat manfaatlarining, aytish joiz bo'lsa, jamiyat va davlatning burch hamda vazifalarining bir-biriga aynan emasligi bilan bog'liq ob'yektiv holatni e'tiborga olishimiz lozim.

XULOSA.

Jamiyat va sotsium hamda davlat garchi yaxlit bir tizimning biri ijtimoiy va ikkinchisi esa siyosiy qismlari hisoblansa-da, substansional va funksional nuqtai nazardan alohida unsurlardir. Jamiyat doirasida munosabatlar va faoliyat ixtiyoriy

xususiyatga ega bo'lsa, davlat darajasida ular ma'muriy-huquqiy yo'nalish kasb etadi. Agar, milliy manfaatlarga ushbu qoidadan chiqib yondashilsa, u holatda jamiyat taraqqiyotiga bevosita daxldor bo'lib, millat va davlat orasidagi maqsad va amaliy faoliyatdagi uyg'unlik va mushtarakliklarni ta'minlashga yo'naltirilgan maqsadli faoliyatdir. Shuningdek, milliy manfaatlar muayyan davlatning mintaqaviy jarayonlarda o'z ijtimoiy, siyosiy va huquqiy ehtiyoj, istak va qiziqishlarini himoya qilishda ham namoyon bo'ladi. Xullas, sotsium manfaatlari birmuncha (geterogen), tartibga tushirish mushkul bo'lgan ijtimoiy

uyushmalar intilishlari tizimi bo'lsa, «milliy manfaatlar» esa aniq tizim, strategiyasiga ega bo'ladi va shu maqomda jamiyat va davlat barhayotligini ta'minlaydi. Shuningdek, reallik tarzida sotsium, jamiyat va xalq manfaatlarini tuzilmaga keltirish ancha murakkab bo'lsa, «milliy manfaatlar» siyosiy hokimiyat timsolida o'z himoyachisi, mas'uliga ega. Va shu funksiyasi uni jamiyat va davlat barqarorligi hamda xavfsizligining fundamental konstruktiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov A. Geosiyosat. – Toshkent: Tamaddun, 2016. – B. 251.
2. Iminov B.K. Manfaatlar – siyosat va mafkura manbai. – Toshkent: Minhaj, 2002. – B. 14.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 4.
4. Qabulov Q.P. Milliy manfaatlarni uyg'unlashtirishda tolerantlik. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand: 2018.–B 13.
5. Nazarov N. Markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlar. – Toshkent: Global Books, 2018. – B. 21.
6. Sirojov O. Markaziy Osiyoda hamkorlik jarayonlari (monografiya). – Toshkent: O'zbekiston, 2016
7. Alimov G. Sentralnaya Aziya: obnost interesov. – Toshkent: Sharq, 2005; Jo'rayev T. Milliy manfaatlar va milliy xavfsizlik (o'quv qo'llanma). – Toshkent: Akademiya 2010 va boshqa ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.



ENDOGEN OMILLARNING O‘SPIRINLARNING JISMONIY RIVOJLANISH VA TAYYORGARLIK DARAJASIGA TA’SIRI

Maxsudova Malika Xolmatjanovna
Andijon Davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Pedagogik jarayonning talabalarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasiga ta’siri. Turmush tarzining talabalarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasiga ta’siri. Odam organizmida asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar tana vazni va bo‘y uzunligi – genetik omillar ta’sirida rivojlanuvchi ko‘rsatkichlar xisoblanadi. Talabalarning jismoniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida – turmush tarzi, kun tartibi, ovqatlanish rejimi, jismoniy tarbiya va mehnat faoliyati, ta’lim muhiti, o‘quv jarayonning tashkil qilinishi kabilar ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, ovqatlanish me’yori va ratsioni tarkibi ham talabalarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi aytib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Ta’lim, dolzarb, bo‘lajak, jismoniy rivojlanish ish bajarish qobiliyati, jismoniy sifatlar, talabalar, surunkali kasalliklar, nerv psixik, nafas olish organlari.

Maqola haqida ma’lumot
Qabul qilingan: 24.04.2024
Qayta qabul : 27.04.2024
Saytda mavjud : 1.05.2024

Muallif (lar)

M.X.Maxsudova



Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0004-3493-6680>



gulchexrazoxidova96@mail.com

© Muallif. M.X.Maxsudova

UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma’lumotlar:

<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to‘g‘ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko‘rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Аннотация: Влияние педагогического процесса на физическое развитие и уровень подготовленности учащихся. Влияние образа жизни на физическое развитие и уровень подготовленности учащихся. В организме человека основными антропометрическими показателями являются масса тела и рост – показатели, развивающиеся под влиянием генетических факторов. В качестве факторов, влияющих на физическое развитие учащихся, указываются – образ жизни, распорядок дня, Режим питания, физкультурно-трудовая деятельность, образовательная среда, организация учебного процесса. Также было отмечено, что норма питания и состав рациона также оказывают существенное влияние на показатели физического развития учащихся.

Ключевые слова: Образование, настоящее, будущее, физическое развитие, работоспособность, физические качества, студенты, хронические заболевания нервных, психических органов, органов дыхания.

Annatation. The influence of the pedagogical process on the level of physical development and training of students. The influence of lifestyle on the level of physical development and training of students. In the human body, the main anthropometric indicators are body weight and height length – indicators that develop under the influence of genetic factors. As factors affecting the physical development of students – lifestyle, agenda, diet, physical education and labor activity, educational environment, Organization of the educational process are indicated. It was also mentioned that the content of the norm and diet of nutrition also significantly affects the indicators of physical development of students.

Keywords: Education, current, future, physical development, ability to perform work, physical qualities, students, chronic diseases, nervous, mental, respiratory organs.

KIRISH

Ta'lim olish jarayonida talaba qizlarning jismoniy rivojlanish

darajasi va salomatligi holatini doimiy ravishda monitoring qilish maqsadida morfologik va funksional ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ularning salomatligini saqlash va mustahkamlash chora-tadbirlari kompleksini ishlab chiqish nuqtai nazaridan, dolzarb ahamiyatga ega. Kelajak avlodni sog'lom o'sishi va rivojlanishi bo'lajak onalarning salomatligiga bog'liqligiga etibor qaratilsa muammoning ahamiyati yanada yaqqol ko'rinadi.

Jismoniy rivojlanish – bu, odam organizmi salomatligining integral ko'rsatkichi hisoblanadi va aynan, oliy maktabda ta'lim olish davri o'spirinlar organizmining sog'lom jismoniy shakllanishi uchun optimal davr sifatida qayd qilinadi.

Odam organizmining barcha turdagi faoliyat yo'nalishlarida ish bajarish qobiliyatining yuqori bo'lishi asosiy jismoniy sifatlar bilan ifodalanuvchi jismoniy rivojlanganlik darajasi bilan.

Shunday qilib, individning o'z imkoniyatlarini to'liq holda namoyon qilishida jismoniy rivojlanganlik darajasi muxim ahamiyat kasb etadi.

O'spirinlik davri – organizmning funksional holatiga ta'sir etuvchi muhim ijtimoiy jarayon xisoblanib, o'rta ta'limdan keyin aksariyat oliy ta'limda ta'lim olish davriga to'g'ri keladi. Talabalar - bu aholining alohida kontingenti bo'lib, ular salomatligining holati oldingi davrlardagi ijtimoiy farovonlik va tibbiy ta'minotning barometri, shuningdek keyingi yillarda aholi salomatligidagi o'zgarishlarning ko'rsatkichidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bir qator mualliflarning fikriga ko'ra, so'nggi o'n yillikda talaba yoshlar salomatligining pasayishi va surunkali kasalliklar tarqalishi kuzatilmoqda. O'rtacha 20-40% talabalarda turli xil surunkali kasalliklar: nerv psixik, yurak-qon tomir, tana vaznining yetishmasligi yoki ortiqchaligi, nafas olish organlari kasalliklari kuzatilmoqda.

Bu esa sog'liqni saqlashni baholashga yo'naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish va aholining ushbu kontingenti

mamlakat xalq xo'jaligini kelajagini ta'minlovchi kuchining salohiyatini saqlashga qaratilgan tadqiqotlarni olib borishni talab etadi.

Odam organizmida asosiy antropometrik ko'rsatkichlar tana vazni va bo'y uzunligi – genetik omillar ta'sirida rivojlanuvchi ko'rsatkichlar xisoblanadi. Optimal sharoitda genlarning fenotipda maksimal darajada ta'siri qayd qilinadi.

Talabalarning jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida – turmush tarzi, kun tartibi, ovqatlanish rejimi, jismoniy tarbiya va mehnat faoliyati, ta'lim muhiti, o'quv jarayonning tashkil qilinishi kabilar ko'rsatib o'tiladi.

Talabalarning fiziologik yoshi biologik o'sish–rivojlanish davrining nisbatan stabillashgan, murakkab bosqichlaridan biri bo'lib, aynan ushbu davrda organizm ontogenezida sezilarli jismoniy va ruhiy o'zgarishlar amalga oshadi. O'z navbatida bu davrda salomatlik holatidagi muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Talabalarning jismoniy rivojlanish darajasi, harakatlar faolligining optimal darajada bo'lishi, ularning aqliy–ruhiy

jihatdan maqsadga muvofiq shakllanishi, rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligi ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan.

METODOLOGIYA

Ontogenez nuqtai nazaridan, talabalar organizmi ichki-tashqi muhit omillari ta'siriga nisbatan ruhiy–fiziologik adaptatsiya mexanizmlari jadal amalga oshishi va organizmning yangi funksional darajaga ko'tarilishi yo'nalishida o'sish–rivojlanishi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrining yakuniy qismida jinsiy jihatdan yetilish jarayoni kuchayishi bilan bog'liq holatda, organizmida neyrohumoral va gormonal regulyatsiya mexanizmlari faollashadi, o'z navbatida ichki-tashqi omillar ta'siriga moslashish imkoniyatlari o'zgarishi e'tirof etiladi.

O'spirinlar organizmida amalga oshadigan fiziologik neyrohumoral o'zgarishlarning buzilishi bevosita, organizmning adaptatsion imkoniyatlari keskin susayishiga olib kelishi mumkinligi qayd qilingan.

Odam organizmining ichki muhiti (jumladan, neyroendokrin

tizimning holati) va tashqi ekologik muhit omillari jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Odam organizmining ontogenez davri davomida fiziologik yoshga bog'liq jismoniy rivojlanish jarayonini o'rganish nazariy-amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega bo'lib jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida aholining salomatlik holatini ob'ektiv baholash imkonini beradi,

Turmush tarzining talabalarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasiga ta'siri.

Talabalar organizmining jismoniy rivojlanish darajasi salomatlik holatiga atrof-muhit, ta'lim jarayoni bilan birgalikda turmush tarzi ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Fiziologik yosh davriga bog'liq holatda, talabalarning ruhiy-fiziologik o'ziga xoslik nuqtai nazaridan, 80% holatlarda jismoniy faollik darajasi yuqori bo'lishi talab qilinmaydigan, kompyuter o'yinlari bilan shug'ullanish, qiziqarli teledasturlarni uzoq vaqt davomida tomosha qilishga moyillik darajasi yuqori bo'lishi aniqlangan.

Zamonaviy davrda tadqiqotlarning ko'rsatishicha talabalarning 80% dan ortig'ida kuniga 2 soatdan ortiq televizor ko'rish yoki 90% dan ortig'ida kompyuter yoki telefondagi o'yinlari bilan shug'ullanish holatlari aniqlangan. Buning ta'sirida ko'rish analizatori va organizmning boshqa funksional tizimlarida surunkali kasalliklar patogenezi kuzatilishi ehtimollik darajasi 30% gacha ortishi tasdiqlangan.

BSST statistik ma'lumotlariga ko'ra, odam organizmida 50–55% kasalliklar patogenezi odamning turmush tarziga bog'liq bo'lib, jismoniy tarbiya va sport talabalarning jismoniy rivojlanishi, salomatligini saqlash va mustahkamlashda muhim omil hisoblanishi isbotlanadi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy omillar ta'sirida aholi salomatligining susayishi va shuningdek, demografik muammolar (aholi tarkibida yoshi keksalar son miqdorining ortishi va boshqalar) kuchayishi talabalarning salomatlik

holatiga bevosita va bilvosita ta'sir etishi ko'rsatiladi.

Shuningdek, ovqatlanish me'yori va ratsioni tarkibi ham talabalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi aytib o'tilgan.

Pedagogik jarayonning talabalarning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasiga ta'siri.

Ta'lim muhiti – bu, ta'lim–tarbiya jarayonida talabalarning bilim olishga yo'naltirilgan ob'ektiv moddiy–texnik va sub'ektiv ijtimoiy–ruhiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan kompleks hisoblanib, aynan ta'lim muhiti talabalarda jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Odam organizmining salomatlik holatiga atrof–muhit, turmush tarzi va ta'lim jarayoni kabi omillarning ta'sirini aniqlashda jismoniy rivojlanish biologik indikator sifatida o'rin tutadi.

Odam organizmi ontogenezing bio–ijtimoiy jihatdan muhim bosqichlaridan biri – bu, talabalik davri bo'lib, bu davrda organizmda morfo–

funksional tizimlar oxirgi katta odam xolatiga yetadi. Shuningdek, ushbu yosh davrida maktabda tizimli tavsifdagi kuchli va katta xajmdagi ta'lim jarayoni boshlanishi, yangi tipdagi stress omilning ta'siri yuzaga kelishi aytib o'tiladi. Ayniqsa, ko'pchilik holatlarda zamonaviy taraqqiyot bosqichida ta'lim tizimiga joriy qilingan innovatsion texnologiyalar, darslar dasturlarining murakkab tarkibi talabalar organizmining funksional imkoniyatlariga muvofiq kelmasligi ko'rsatiladi.

MUHOKAMA

Rossiya davlatida amalga oshirilgan tadqiqotlarda zamonaviy sharoitda umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslari strukturasi zamon talablariga javob bermasligi joriy ta'lim standartiga muvofiq hisoblangan jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning jismoniy faollik darajasi susayishini faqat 11% kompensatsiyalashi aniqlangan.

Tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimini zamonaviylashtirish

maqsadida, kompyuter texnologiyalari, ayniqsa Internet tarmog'idan keng diapazonda foydalanishni joriy qilish yangilikka qiziquvchan talabalarda jismoniy faollik darajasining sezilarli susayishini keltirib chiqarishi aniqlangan.

Yosh organizmning me'yoriy rivojlanishi uchun jismoniy faollik muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarni aqliy mehnat hajmi ortishi, jismoniy tarbiya dars soatlarining kamligi va darslar oralig'idagi tanaffuslarda faol holatda dam olish tashkil qilinmasligi ta'sirida jismoniy rivojlanish susayishi, o'z navbatida talabalarda intellektual qobiliyatlarning yuzaga oshirilishi, salomatlik darajasining susayishiga olib kelishi tasdiqlangan.

Zamonaviy oliy ta'lim muhitida aqliy mehnat hajmining ortishi, turli xil kompyuter texnologiyalari, murakkab dars o'tish uslublarining joriy qilinishi ta'sirida talabalarda jismoniy faollik darajasining susayishi, talabalar organizmi funksional imkoniyatlari va salomatlik darajasi pasayishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri sifatida qayd qilinadi.

Umumiy holatda, talabalarning salomatlik darajasining pasayishi aqliy mehnat hajmining ortishi, kun tartibi va

ovqatlanish me'yoring maqsadga muvofiq emasligi, shuningdek ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining qoniqarli darajada tashkil qilinmaganligi kabi omillarga bog'liqligi aniqlangan. Shuningdek, talabalarning salomatligi, jismoniy rivojlanish darajasi irsiyat, turmush tarzi, jamiyatdagi ijtimoiy–madaniy muhit, iqlim–geografik sharoitlar, ekologik muhit omillariga bog'liq hisoblanadi. Talabalarning salomatlik holati (turli xil kasalliklarga qarshilik ko'rsatish darajasi yuqoriligi, organizmning tashqi muhitga moslashuvchanlik darajasi, morfo–funktional ko'rsatkichlari yuqoriligi), shuningdek kuch, chidamlilik, tezlik va ish bajarish qobiliyati bevosita jismoniy faollik darajasiga bog'liq hisoblanishi ta'kidlangan.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri–bu, shaxsning, jismoniy va ruhiy jihatdan barkamol shakllanishini ta'minlashdan tashkil topgan. Ushbu nuqtai nazardan, talabalarning jismoniy rivojlanish masalasi jamiyatda yetuk va sog'lom shaxsning

shakllanishi jarayonida muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Talabalarning biologik-ijtimoiy, ruhiy-fiziologik holatini e'tiborga olgan holatda, jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik darajasini doimiy ravishda nazorat qilib borish, ular organizmining

jismoniy faolligi, umumiy salomatlik darajasini monitoring qilish va o'z navbatida, tegishli tibbiy-pedagogik korrektsiyalarni amalga oshirish nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

